

VATANDOSH

Vatandin yaxshi yor bo'lmas!

\$0.50

Madaniy-ma'rifiy gazeta. 2011-yil, 1-iyun. 5-son.


NEGA SAMARQANDLIKLIK KO'P "GRIN KARTA" YUTMOQDA?



AQSHning O'zbekistondagi konsuli Devid Miko:

— O'zbekistondan **2007-yili 910** kishi "Grin Karta" asosida viza olgan bo'lsa, bu raqam **2008-yili 2100** ga, **2009-yili 2200** ga, **2010-yili 3200** ga yetgan. O'zbekiston eng ko'p "Grin Karta" yutayotgan davlatlar orasida **7-o'rinni** egallaydi. "Grin Karta" yutganlarning o'rtacha oilaviy ahvoli **2,8** kishini tashkil etmoqda. O'rtacha yosh esa **30** dir. Ulardan o'rta ma'lumotlilari **31%**, kollej ma'lumotiga egalari **35%**, bakalavrlar **28%**, magistrlar **5%** ni tashkil etmoqda. G'olib bo'lganlarning **63%**i Samarqand viloyati vakillari bo'lsa, **28%**i Toshkent shahri va viloyati hissasiga to'g'ri kelmoqda. Boshqa viloyatlar ko'rsatkichlari ancha past. "Grin Karta" orqali viza olganlarning **74%**i Nyu-Yorkka yo'l olishmoqda.

5-sahifada o'qing



OYOQ OSTIDAGI GAVHAR DONASI

Lev Tolstoy umri davomida nimadir yetishmayotgani, to'kis hayotida nedir bir kamchilik borligini his qilib yashadi. O'sha — hayotini kemtik qilib turgan KUCHni sarosar qidirdi, tunu kun izladi. "Arslon bobo" eng qadrli deya butun umr qidirgan va alaloqibat topishga muvaffaq bo'lgan boylik... E'TIQOD edi!

3-sahifa



HIDOYAT GULSHANI

Bir kuni Iso alayhissalom ashoblari bilan yo'lda ketayotsalar, harom o'lgan itni ko'rishibdi. Ashoblar hammalari burnilarini yopib:

— Namuncha sasimasa, badbaxt, — deyishsa, Iso alayhissalom:

— Tishini oqligini qarang, — deb undan ham bir yaxshilik topgan ekanlar.

7-sahifa

Isoqjon Narziqul Turkiston-Amerika Assotsiatsiyasi prezidentlari orasida tadbirkorligi, ishbilarmonligi va tashkilotchilik qobiliyatlari bilan alohida ajralib turardi. U vatansavar, millatparvar inson edi.

Isoqjon Jizzax shahrida tavallud topdi. Yoshligidan bilimga chanqoqligi, intiluvchanligi bilan ko'zga tashlangan o'spirin Toshkentdagi harbiy bilim yurtiga o'qishga kiradi. Oqishga kirarkiramas, 2-jahon urushi boshlanadi.



Isoqjon Narziqul Germaniyaning sobiq Kansleri Gelmut Shmidt bilan suhbatlashmoqda. Bonn.

BIRINCHI O'ZBEK MILLIONERI

Isoqjon o'qishni tezkor dastur asosida tugatib, birinchilardan bo'lib urushga jo'naydi va urushda leytenant harbiy unvoni bilan rotaga komandirlik qiladi. Shafqatsiz kechgan janglardan birida armiyasi dushman qurshovida qolib, asirga tushadi.

Isoqjon asirlikda konslager azoblarini boshidan kechiradi... Keyincha-

lik Turkiston legioniga qabul qilinadi. Urushdan so'ng Chexoslovakiyada qolib, u yerda slovak millatiga mansub Yeva ismli juvonga uylanadi. Undan ikki o'g'il ko'radi. Keyinroq Germaniyada yashab, 1949-yili Chexoslovakiya fuqarosi sifatida AQSHga ko'chib ketadi.

(davomi 3-sahifada)



O'tkir Hoshimov. DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR

Xonadoningizda keksa odam bormi? Baxtli ekansiz! Dunyo tashvishlaridan to'yib ketsangiz, shularni ziyorat qiling: hayot abadiy emasligini o'ylab, taskin topasiz.

Xonadoningizda go'dak bormi?

Siz ham baxtli ekansiz... Dunyo tashvishlaridan to'yib ketsangiz, go'dakni bag'ringizga bosing: hayot abadiy ekani o'ylab, taskin topasiz...

6-sahifada o'qing



NAVOIY SAVDO QATORI NEGA BUZILDI?

Navoiy savdo qatori shu yilning mart oyi o'rtalarida buzilib, sobiq "Malika" fabrikasiga ko'chirilganidan balki xabaringiz bordir. Shuningdek, Navoiy ko'chasi bilan kesishuvga yaqin joyda joylashgan Furqat ko'chasidagi Geologiya muzeyi, Botir Zokirov (so-biq Abay) ko'chasidagi biznes markaz binolari ham olib tashlangan.

12-sahifa



YAQINLARIMIZNI ESHITA OLAMIZMI?

Uchinchi ming yillikda yashayapmiz. Bizga hamma narsani o'rgatishadi: qanday ovqat pishirishni, qanday kiyinishni, qanday boy bo'lishni va yana boshqa narsalarni.

Hech kim sizga onangizni quchib, "Onajon, menga tarbiya berganingiz uchun rahmat, sizni judayam yaxshi ko'raman", deyishni o'rgata olmaydi.

14-sahifa

JUMLADA JAHON

- 20-may kuni AQShning Afg'oniston va Pokistondagi maxsus vakili Elchi Mark Grossman O'zbekistonga tashrif buyurib, Afg'onistonda xafsizlikni ta'minlash va uni qayta tiklash yo'lida mamlakat rasmiylari bilan uchrashdi.
- 20-may kuni 2011-2016 yillarga mo'ljallangan "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori e'lon qilindi.
- 23-may kuni O'zbekistonda Yevropa Ittifoqi vakolatxonasi faoliyat boshladi. Vakolatxonaga chexiyalik Ondrjey Shimek rahbar etib tayinlangan.
- Livanning Bayrut shahrida to'rtinchi marotaba o'tkazilgan xalqaro shaxmat turnirida o'ndan ziyod mamlakatning yetmish nafarga yaqin sportchisi orasidan O'zbekiston sharafiga himoya qilgan Aleksey Barsov bellashuvlarni mag'lubiyatsiz yakunlab, birinchi o'rinni egalladi.
- Markaziy Qizilqum konini o'zlashtirish to'g'risida Toshkent va Pekin o'rtasida imzolangan bitimga ko'ra, Xitoyning "CGNPC Uranium Resources" kompaniyasi 2014-yildan boshlab Navoiy viloyatida uran qazib olishni boshlaydi.
- Toshkentda o'tkazilgan kurash bo'yicha Osiyo chempionatida O'zbekistonlik kurashchilar jamoa bo'yicha birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.
- "O'zbekiston havo yo'llari"ning xabar berishicha, O'zbekiston mahalliy reyklarida 2011-yil 1-iyundan boshlab chiptalar narxi 20 foizga oshirildi.
- Italiyaning Barletto shahrida o'tkazilgan Yosh musiqachilar xalqaro tanlovida o'zbekistonlik to'qqiz yohli Iskandar Mamadaliyev mutlaq g'olib bo'lib, gran-prini qo'lga kiritdi.
- "Visa Waive" dasturi doirasida amalga kiritilgan yangi tartibga ko'ra, Buyuk Britaniya vizasiga ega bo'lgan O'zbekiston fuqarolari 2011-yilning iyulidan boshlab Irland vizasini olmasdan Irlandiya hududiga kirishlari mumkin.
- AQSh va Isroil rahbarlari Yaqin Sharq tinchlik jarayoni yuzasidan Oq uyda o'tkazgan muloqot natijasiz yakunlandi. Barak Obama bilan uchrashgan Isroil Bosh vaziri Benyamin Netanyahu Isroil 1967-yilda bosib olingan hududlarni Falastinga qaytarmasligini aytgan.
- AQShning Missuri shtati Joplin shahrida yuz bergan tornado oqibatida halok bo'lganlar soni 140dan oshdi.
- AQShning "Bloomberg" moliyaviy axborot agentligi tarqatgan xabarga ko'ra, jahon bozorida paxtaning bahosi 31 foizga arzonlagan.
- 26-may kuni Qirg'iziston Jo'qorg'i keneshi (parlamenti) O'sh va Jalolobod viloyatlarida ro'y bergan qonli hodisalarni o'rgangan Xalqaro mustaqil tekshiruv komissiyasi raisi Kimmo Kilyunenni mamlakatga kiritmaslik to'g'risida qaror qabul qildi. Deputatlarga ko'ra, xalqaro kengashning voqealar haqidagi bayonoti noxolis va notog'ridir.
- Qozog'iston Moliya vaziri Bo'lat Jamishevning aytishicha, Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki (YTTB) 2011-yilda Qozog'iston iqtisodiyotiga 700 mln. yevro investitsiya kiritishni mo'ljallamoqda.
- Qozog'istonning katta miqdorda neft zaxiralarga ega Kashagan (qozoqcha, Қашаған) neft konida qazish ishlari 2012-yilning dekabr oyida yoki 2013-yilning boshida boshlanishi kutilmoqda.
- "РИА Новости"ning xabar berishicha, Rossiya 2010-yilda o'zining xalqaro oltin zaxiralari miqdorini 789 tonnaga yetkazib, bu borada jahonda mutlaq yetakchi davlatga aylandi.
- "Известия" nashri bergan xabarga ko'ra, bundan buyon Rossiyaga ishlash uchun keluvchi markaziy osiyolik mehnat muhojirlari rus tili va madaniyatidan imtihon topshiradilar.
- 26-may kuni Bosniyada 90-yillar boshida bo'lib o'tgan etnik to'qnashuvda 8000 musulmon erkak va o'g'il bolalarni qatl etishda aybdor bo'lgan general Ratko Mladich qo'lga olindi. Mladich 1995-yildan beri qidiruvda edi.
- 27-may kuni Germaniyaning Frankfurt fond birjasi Xetra elektron tizimiga o'tdi. Nemis fond birja bozoridagi qimmatli qog'ozlar savdolari endi butunlay elektron tizim orqali amalga oshiriladi.
- Jenevada bo'lib o'tgan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) assambleyasining 64-sessiyasida yosh bolalar, homilador va emizikli bolalarning oziq-ovqatlarini yaxshilash bo'yicha yangi reja loyihasi ishlab chiqildi.
- Dunyodagi eng yirik internet-kompaniya hisoblanuvchi Google korporatsiyasi o'z tarixida ilk marta obligatsiya chiqardi. Bozorga chiqarilgan obligatsiyalarning jami qiymati 3 mlrd. dollar bo'lib, ular uch xil muddatli – bir yillik, uch yillik va o'n yillik obligatsiyalardir.
- To'rt yillik blokadadan so'ng, Misrda o'tish hukumatini boshqarayotgan harbiy kengash Falastinning G'azo hududiga o'tish uchun Rafah postiga qo'yilgan to'siqlarni olib tashladi.
- Misr sudi sobiq prezident Husni Muborak va yana ikki sobiq davlat rasmiysini mamlakatda yuz bergan inqilobiy ko'tarilish davrida telefon va internet xizmatini uzib qo'yganklikda aybdor deb topib, 90 mln. dollarlik jarima bilan jazoladi.

YANGI ELCHI TASDIQ-DAN O'TMOQDA

*Uznews.com*ing xabar berishicha, AQShning O'zbekistondagi elchisi lavozimiga prezident Barak Obama tomonidan tavsiya etilgan Jorj Krol nomzodi Senatning xalqaro aloqalar qo'mitasi tasdig'idan o'tmoqda.

2010-yilning iyulidan beri AQShning O'zbekistondagi elchisi bo'lgan Richard Norland vakolat muddatining tugashi bilan elchi lavozimi bo'sh qolayotgan edi. Ayni paytda AQShning O'zbekistondagi diplomatik missiyasi rahbari o'rinbosari Dueyn Batcher muvaqqat vakil vazifasini bajarib turibdi.

1992-yildan buyon Genri Li Klark (1992-1995), Stenli Eskudero (1995-1997), Jozef Presel (1997-2000), Jon Hyorbst (2000-2003), Jon Purnell (2004-2007) kabi diplomatlar Vashingtonning Toshkentdagi rasmiy vakili bo'lib kelgan.



Jorj Krol diplomatlik faoliyatini 1982-yili boshlagan. AQShning Varshava, Dehli, Moskva, Kiyev, Minskda vakolatxonalarida ishlagan. 2003-2006-yillarda AQShning Belarudagi elchisi bo'lgan. Davlat departamentining Rossiya ishlari bo'yicha idorasini boshqargan. Ayni paytda Davlat kotibining Janubiy va Markaziy Osiyo masalalari bo'yicha yordamchisi o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritmoqda.

Jorj Krol 2009-yilning noyabrida Davlat kotibi yordamchisining o'rinbosari sifatida O'zbekistonga tashrif buyurgan.

O'ZBEKISTONDA TAKSILAR TARTIBGA SOLINMOQDA

18-may kuni O'zbekiston hukumati mamlakatda taksilar faoliyatini tartibga solish to'g'risida qaror qabul qilgan. Unga ko'ra, 2012-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekistonda taksilar tashqi ko'rinishi xalqaro standartlarga mos ravishda o'zgartirilishi kerak, deb yozadi *Uzdaily.com*.

Yangi qarorga ko'ra, taksi avtomobillari tomida to'q sariq rangda "Taxi" yozuvi bo'lishi kerak. Shuningdek, oldingi

eshiklarga "T" belgisi bilan oq-qora katakchalar hamda taksi kompaniyasi yoki egasi haqida ma'lumot yozilishi talab etiladi. Taksilar uchun maxsus davlat raqamlari beriladi.



Oldingi oynaning yuqori o'ng tomoniga yashil chiroqchening o'rnatilishi ham ko'zda tutilgan. Yashil chiroqchening yonib turishi taksi-ning bo'sh ekanini bildiradi.

Bundan tashqari, har bir mashinada kartochka qabul qiladigan terminal, chek mashinasi, taksi-metr va radioaloqa vositasi bo'lishi kerak. Taksi sifatida ishlatiladigan avtomobillar sariq rangda bo'lishi lozim. Toshkent taksilari esa fil suyagi rangda bo'lishi belgilangan.

NYU-YORK POLITSIYASIDA KORRUPSIYA KUCHAYGANMI?

Nyu-York politsiyasining bir necha ofitseri ustidan Bronxda bo'layotgan sud AQSh ommaviy axborot vositalarining diqqat markazida. Sudlanayotgan politsiyachilar yo'l qoidalarini buzgan haydovchilar uchun beriladigan jarimalarni tanish-bilish orqali bekor qilganlari ustidan so'roqqa tutilmoqda. Ayni paytda "New York Times"dan tortib "Huffington Post" gacha AQSh matbuoti vakillari Nyu-York politsiyasi qanchalik korruptsiya botqog'iga botgani haqida yozishmoqda.

"New York Times"ning yozishicha, noqonuniy xatti-harakat bilan qo'lga tushgan qoidabuzarlar tanish politsiyachilarni oraga suqib, jazodan qutilib qolishlari Nyu-Yorkda keng tarqalgan. Bunday hodisa hatto qotillikka aloqador ishda ham amalga oshirilgan, deb yozadi nashr.

"New York Post"ning yozishicha, mamlakat bo'ylab keng shov-shuvga sabab bo'lgan bu mashmasha oqibatida 400dan ortiq politsiyachi javobgarlikka tortilishi mumkin.

Nyu-York meri Blumberg bu narsa dunyodagi eng buyuk politsiya departamenti uchun hazm qilib bo'lmas ish ekanini va albatta aybdor politsiyachilar o'z qilmishlari uchun javob berishlarini aytgan.

Behzod MAMADIYEV
tayyorladi.

Vol.5. Wednesday,
June 1, 2011

Publisher:

Farhod Sulton

Executive Editor:

Davronbek Tojialiyev

Deputy Editor:

Alisher Aymatli

Deputy Editor:

Toshpulat Rahmatullaev

News Editor:

Behzod Mamadiyev

Managing Editors:

Abdulla Kwaja

Lutfulla Tore

Tamara Nazarova

Ulugbek Qosimov

Advertising Manager:

Sodiq Fayzulla

Web Developer:

Shukhrat Pardayev

Editorial and Executive office:

2715 Coney Island Ave.

Brooklyn, NY, 11235

Phone: 646.397.0325

Web: www.vatandosh.com

www.vatandosh.uz

Email:

info@vatandosh.com

All material in this newspaper has been copyrighted and is the exclusive property of Vatandosh Inc and cannot be reproduced without the due consent of the publisher.

The views and opinions expressed by our columnists do not necessarily reflect the editor's point of view.

We are not responsible for contents of advertisements and products and establishments advertised in Vatandosh.

Price: \$0.50

Circulation: 5000

Aziz vatandoshlar!
"Vatandosh" gazetasi bilan hamkorlikda ishlayman, o'z mahsulot va xizmatlarimni ushbu nashrda targ'ib qilaman, bu yangi nashrning oyoqqa turib olishiga homiylik ko'rsataman, deganlarga hech qanday moneligimiz yo'q, eshigimiz Siz azizlar uchun hamisha ochiq!

Odamzot uchun bu hayotda eng ardoqli va kerakli narsa nima? Boylikmi? Yo'-o'q! Yonatrofingizdagilar turmushiga razm solsangiz, birgina davlat saodat kaliti bo'lolmasligiga ishonch hosil qilasiz. Boylik topgan-u, ammo umr mazmunini topa olmay halak sohibdavlatlar qancha!..

Mansabmi? Bu ham emas. Amal insonga baxt tuhfa qilolmasligiga hayotiy misollar yetarli. Buning uchun uzoqqa borishning hojati yo'q. Qolaversa, ahli mashoyix mansabu amalni bir lahza boshda makon tutib, so'ng jo'nab qoladigan beqo'nim qushga o'xshatgani ham bejizmas. Obro', shonshuhrat deb atalgan, xayolimizni har dam o'g'irlyadigan arzonbaho marralar-da umrimiz mazmunini belgilab bera olmaydi. Unda, inson uchun eng qadrli boylik nima?..

Lev Tolstoyning yaxshi bilasiz. Ha, o'sha bo'y baravar kitoblari bilan jahonga tanilgan, "Urush va tinchlik", "Anna Karenina"lari bilan tilga tushgan mutafakkir qalamkash. Tolstoyning hayoti xuddi asarlari kabi ibratga to'la. Agar baxt deganlari boylik, izzat va davlat bilan ma'nodosh bo'lganida edi, Sersoqol adib o'zini kurrai zaminning eng saodatmand kishisi deb baralla e'lon qilishi mumkin edi. Badavlat, buning ustiga kimsan, aslzoda graf, soyasiga salom beradiganlar sonmingta! Yaratgan obro'-e'tiboru iste'doddan qismagan, kiborlar jamiyatida aytgani aytgan, degani degan! Ammo hayotdan lazzatlanish uchun shuncha imkoniyatlar bo'lishiga qaramay, Lev Tolstoy umri davomida nimadir yetishmayotgani, to'kis hayotida nedir bir kamchilik borligini his qilib yashadi. O'sha - hayotini kemtik qilib turgan KUCHni sarosar qidirdi, tunu kun izladi. "Arslon bobo" eng qadrli deya butun umr qidirgan va alaloqibat topishga muvaffaq bo'lgan boylik... E'TIQOD edi!

Har kuni turfa fe'l-atvor, turli tiyatrdagi kishilar bilan muloqotda bo'lamiz. Shunday insonlar borki, o'z fikri va qarashiga ega, atrofdagilarni ham ortidan ergashtira oladi. Shamol qayoqdan essa, shu tomonga egilib ketavermaydi, buqalanmunde'k tovlanmaydi, tuslanmaydi. Bukiladi, ammo sinmaydi! Boshiga qilich kelsada, o'z e'tiqodida sobit turadi. Bunday insonlar ko'p emasa, degan e'tirozingizda jon bor. Lekin omadingiz chopib, shunday sobitqadam kishi bilan suhbatlashib qolsangiz, o'zingizni tetiklashgandek his

qilasiz, ulardan hayotiy quvvat olgandek bo'lasiz. Bu - inson uchun suvu havodek zarur e'tiqodning kuchi va jozibas!

Taassufki, besh qo'l barobar emas. Ularning aksi - o'z qarashiga ega bo'lmagan, nondek arzanda ma'naviy boyliklarni-da sotishga tayyor, "qulluq" va "xo'p bo'ladi"ni sevimli shior deb bilgan odamlar bilan ham yuzma-yuz so'zlashishga to'g'ri keladi. Ular bilan suhbatlashganda esa ko'nglingiz g'ashlanadi, xotirjamligingiz, ko'tarinki kayfiyatingizdan asar qolmaydi. Agar ozroq diqqatni boy bersangiz, ulardagi zararli mikrobdarro'v yuqishi ham hech gap emas. Bu endi e'tiqodsizlik, subutsizlikning asorati, bemisl kulfati!

Bir ziyoli insonni bilaman. O'zi topgani qora qozonini

qiyoslash mumkin. Yo'q, u bizga boylik yoki boshqa moddiy buyumlarni o'lchab bermaydi. U bizga amalga oshirayotgan ishlarimizning qimmatini baholash, yaxshi va yomon, oq va qora sarhadlarini belgilashda ko'maklashadi.

E'tiqod - siz biz ishongan, dil va til bilan tasdiqlagan imon ne'mati; e'tiqod millionlab kishilarni xayrli matlub yo'lida boshini qovushtiradigan, maslakdosh qiladigan qudrat; e'tiqod bu xayriyatga sabab bo'ladigan, baxtga erishtiradigan, ro'shnolikka olib chiqadigan ruhiy qudrat. Avloniy ta'biri bilan aytganda, «E'tiqod bir fayzi ma'naviydurki, u fayzdan hissasini olmak har bir kishining muqaddas vazifasi».

E'tiqod - insonni tutib turgan ichki ustun. U bo'lmasa, odam bo'ronda qolgan ni-

“Yer Quyosh atrofida aylanadi”, deya ilmida katta inqilob yasagan olimlardan biri ovro'palik Jordano Bruno edi. Odam Ato zurriyodining tabiati qiziq-da, o'ziga yoqmagan fikr eshitsu, darrov bo'g'gisi keladi, boshqalarning fikriga toqat qilishga jasorati yetmaydi. O'sha paytda - 1590-yillarda ham “Yer aylanadi” degan fikr asrlar davomida hukmron bo'lib kelgan daqqi qarashlarga to'g'ri kelmas edi. Shu sababli Jordano Bruno 1592-yilning may oyida shakkoklikda ayblanib, kishanband etiladi. To'qqiz yil davomida qamoqxonada ayovsiz qiynoqlar, xo'rliklar iskanjasida azob chekadi. Ilmga to'g'anoq bir to'da mutaassiblar qat'iyatli olimning irodasini sindirish va qarashlaridan voz kechishga majburlash uchun barcha

DOLZARB MAVZU

Ijodda ham, e'tiqodda ham Qodiriy bo'lish mushkul, juda ham mushkul. Hamma ham Bruno kabi e'tiqodga sadoqat ko'rsata olmaydi. Ammo ulug' insonlar ibratini baribir bizlarni ham ezgu ishlarni sabot bilan davom ettirishga undashi tayin.

Bu hayotda e'tiqodli insonchalik qalbi xotirjam, yuragiga halovat inggan odamni topolmaysiz. Aslida, odamni katta jasoratlarga undaydigan kuch ham ana shu qalb xotirjamligi, vijdon halovati istagidir! Buni o'zingiz sinab ko'rishingiz mumkin. Buning uchun zikr etilmish zotlardek jasoratga qo'l urish shart emas. Deylik, siz bilan ko'pdan buyon arazlashib yurgan, gaplashmay qo'yg'an tanishingizni ziyorat qiling. Garchi ayb unda bo'lsa-da, bir dam e'tiqod kuchiga suyanib, qalbdagi asov manmanlikni yengib, uzr-ma'zur ayting, oradagi sovuqchilikni yo'qotishga, o'rtani isloh qilishga urining. Uddasidan chiq olsangiz, ana o'shanda ko'rasiz qalb halovati va manmanlik ustidan qozonilgan g'alaba sururini!..

Agar e'tiqodli odamlar ko'paysa, ishonning, ko'p muammolarimiz yechiladi, yashash ham yengillashadi. Asablarimizni kemirayotgan dardisarlilar shamol haydagan bulutdek daf'atan tarqab ketadi.

Uchqundan qo'rqqan temir bo'lmaydi, deydi qadimgilar. Keling, biz ham o'zimizni dadil taftish qilib ko'raylik. Xo'sh, to'g'ri e'tiqodda yashayapmizmi, ezgulikni a'mol deb hayot kechiryapmizmi? Agar ushbu savolga ijobiy javob olsangiz, do'ppingizni osmonga oting! Qoniqarli javob olo'lmasangiz... hayotning asl mazmunini qidirishga kirishing. Aks holda, ahli donishlardan biri ogoh etgan noxush hodisa yuz beradi: ezgu e'tiqodga ko'ra yashamayotgan odam yashayotgani kabi e'tiqod qila boshlaydi!..

Abdul SOBIR

OYOQ OSTIDAGI GAVHAR



qaynatishga arang yetadi, ammo shunda ham qo'li ochiq, saxovatpesha, o'zi yemasa-da, do'stlarga ilinadi. Kambag'al bo'lsa-da, nafs va ko'zi to'q, birovning haqqiga xiyonat qilmaydi, omonatdor. Tirik jon, u ham ko'p narsaga muhtoj, ammo o'sha istaganlarini sotib olishga dasti kalta. Noma'qul qilmishlar sodir etganda vijdonga "suv cepish" vositasi bo'lib qolgan "yashash uchun kurash" qoidasidan kelib chiqqak, harom yo'l bilan bo'lsa-da, muhtojlikka barham berishi kerak. Biroqu pokiza xalqumini bulg'amaydi. Harom chegarasini kesib o'tmaydi. Farovonlik manziliga faqat Halollik yo'lidan o'tib yetishga intiladi. O'zi ehtiyojmand bo'lsa-da, xohishlar ustidan hukm yurgiza olgan bu mard inson aynan e'tiqoddan kuch olyapti, unga tayanib ko'pchilikni yo'ldan ozdirayotgan illatlardan o'zini saqlab qolyapti.

E'tiqodni o'ziga xos taroziga

holdek yerparchin bo'ladi deyavering! E'tiqodsiz kimsaning ko'ngli o'g'ri urgan xonadondek huvillab yotadi. Bu dunyoda undan-da notavon, baxti qaro bormikin!..

Psixologlar individ deb ataydigan odamni Hazrati Inson maqomiga ko'taradigan barcha yaxshi fazilatlar e'tiqod bulog'idan suv ichadi. U vujudimiz daraxtining ildizi bo'lsa, ijobiy fazilatlar shoxchalari...

E'tiqod insonga aql bovar qilmas kuch beradi. Siz bizga ramaqijondek tuyulgan e'tiqodli kishi fildek kuchga ega, ammo imonu ishonch ne'matidan mosuvo barzangidan qudratliroq. E'tiqodli insonni qo'rqitish, do'q-po'pisa, majburlov kuchi bilan u ishongan ezgu g'oyadan qaytarib bo'lmaydi. Agar e'tiqodliman deb da'vo qilayotgan odam muvaqqat omillar sababli undan voz kechsa-chi? Bilingki, unda hali e'tiqod shakllanmagan, ishonch qaror topmagan.

DONASI

usullarni ishga soladilar. Lekin Bruno o'z e'tiqodiga sodiq qoladi. Ilm uchun jonini fido qilgan olim gulxanga tashlanganida ham: «O'tda yoqmoqlik - inkor etmoqlik emas!» deya o'z qarashlariga sodiq holda jon taslim qiladi.

Hassos adibimiz Abdulla Qodiriy jasoratini eslang. Zo'ravonlikka asoslangan, tanasi qon bilan sug'orilgan yovuz tuzumning shotirlari uning boshida qilich o'ynatib turganida ham, ming bir qiynoq usullarini qo'llaganida ham, jonidan voz kechsa kechdiki, hayotiy a'moli deb bilgan e'tiqodidan voz kechmadi. "Men haqiqat uchun boshi ketsa "ih" deydigan yigitlardan emasman" degan edi qo'rquv bilmas adib erk yo'lidagi sa'y-harakatlarini oqlar ekan. Qodiriy maslagiga xiyonat qilmadi, e'tiqodiga ters ish tutmadi. Ulug' adib e'tiqod o'ziniki bo'lgani uchun emas, balki haqqoniyligi uchun ham unga jonini tikdi.

VATANDOSH

газетаси реклама
агентларини
ишга қабул
қилади.

Телефон: 646.397.0325
Email: info@vatandosh.com



AMERIKALIK O'ZBEKLAR

«Fojiaviylik odam ichki dunyosining tub mohiyatidir. Adolat, haqqoniylik yo'lidagi faoliyatda yovuz kuchlarga duch kelinganda, shaxs xususiyati fojiali kechinmalar orqali ochila boradi. Fojia – odamning baxt yo'lidagi qayg'uli hamrohidir. Bu bir vaqtning o'zida ham sevgi-muhabbat, ham nafrat, ham da'vat, ham sadoqat bo'lib, oxir-oqibat, odamning o'z umri badaliga o'zligini namoyon qila olishidir».

Chingiz Aytmatov

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Isoqjon Narziqul AQShdagi Turkiston-Amerika assotsiatsiyasining asoschilaridan biri. Uning tashabbusi bilan TAA notijorat-nodavlat tashkiloti sifatida 1958-yili Pensilvaniya shtati hududida ro'yxatga olinadi. 1960-yili esa Nyu-Yorkda uni qayta ro'yxatdan o'tkazib, assotsiatsiya nufuzini federal miqyosga ko'taradi. Isoqjon TAAning birinchi prezidenti bo'lib saylanadi va 1958–1961-yillarda bu vazifani sharaf bilan bajaradi. Isoqjon Narziqul Nyu-York shahri Bruklin mavzesida milliy-madaniy markaz binosini sotib olishga o'z shaxsiy mablag'i bilan hissa qo'shib, TAA oldidagi unutilmas xizmatlardan birini amalga oshiradi.

Isoqjonning bolalik va o'smirlik yillari

Isoqjon Narziqul 1923-yil bahorida O'zbekistonning Jizax shahrida tug'ilgan. Otasi Mahmud Narziqul bosmachi sifatida Sovetlar tomonidan xalq dushmani deb e'lon qilinib, 10 yildan ortiq Sibir surgunida bo'lgan, qamoqdan kelganidan keyin esa 1939-yili og'ir kasallik sababli vafot etgan edi. Kollektivlashtirish davrida Isoqjonning buvasi Narziqul ota kolxozga rais qilib saylanadi. Lekin katta oila uchun buvaning topgani yetmasdi, shuning uchun Isoqjon bolaligidan onasiga yordam beradi. Maktabda u o'z iste'dodini namoyon qilib, chet tillarini yaxshi o'rganadi va mahalliy gazetalarga kichik-kichik maqolalar ham yozadi.

1933-yili 10 yoshligida Isoqjon kolxoz idorasiga borib ish so'raydi. Uning iqtidoridan xabardor bo'lgan yangi rais Isoqjonni brigada ishlarini hisob-kitob qiluvchi tabelchi vazifasiga qo'yadi. 1939-yili «Qizil O'zbekiston» gazetasining bosh muharrir o'rinbosari bo'lgan tog'asi uni Toshkentga bilim olishga da'vat etadi. Isoqjon o'qish uchun Toshkent Oliy harbiy bilim yurtini tanlaydi. Bilim yurti talabiga ko'ra, kursantlar kamida 18 yoshga to'lgan bo'lishlari kerak edi. Isoqjon rus tilini yaxshi bilishi va boshqa fanlardan

ham bilimi kuchliligi hisobga olinib, yosh bo'lsa ham bilim yurtiga qabul qilinadi. Keyinchalik u bilim yurtining a'lochi talabalaridan biri bo'lib taniladi. Mazkur bilim yurtida, asosan, rusiyazbon millat vakillari o'qir, o'zbek talabalar esa bir-ikkita xolos edi.

1939-yili Isoqjon Toshkentda Ergash Shermat bilan tanishadi va umrbod u bilan do'st bo'lib qoladi. U Ergash Shermatdan Turkiston milliy ozodlik harakati masalalari bo'yicha ilk saboqlarni oladi. Undan

BIRINCHI O'ZBEK MILLIONERI

Amerikadagi turkistonliklar jamiyati asoschilaridan biri Isoqjon Narziqulning hayot quvonchlari va tashvishlari haqida

birinchi bor Turkiston milliy ozodligi harakati namoyandasi Mustaf Cho'qay to'g'risida eshitadi.

Isoqjon Narziqul 2-jahon urushi yillarida

1941-yili Isoqjon o'qigan harbiy bilim yurtida darslarning tezlashtirilgan dasturi e'lon qilinadi. 10-iyun kuni Isoqjon Narziqul harbiy bilim yurtini bitirib, leytenant unvonini oladi. U 18 yoshga to'lmasdan turib Boltiqbo'yi harbiy okrugiga harbiy xizmatga yuboriladi. Vaqt tig'izligidan u hatto onasi bilan xayrlashishga ham ulgurmaydi. 22-iyun kuni SSSRga Germaniya hujum qiladi. Shu kuni u Latviyada birinchi bor nemis samolotlarining bombardimoni va haqiqiy urushning jahannam o'ti nima ekanini o'z ko'zi bilan ko'radi. Nemislar artilleriya va minomotlardan o'qqa tutib hujumga o'tadilar. Urushning ilk kunlari aksariyat askarlar nobud bo'ladi, hamma yer qonga belanadi. Isoqjon o'shanda birinchi bor o'lim bilan yuzlashadi. Og'ir ahvolda yarador yotgan Isoqjonni nemislar asirga olishadi...

Konslagerdagi vatandoshlarimizning qismati

Asirga olingan barcha yahudiylar fyurer buyrug'iga binoan so'zsiz otib tashlanar edi. Ularga o'xshash sunnat qilingan minglab musulmon

turkistonliklar ham urushning birinchi kunlari yahudiylar deb otib tashlangan edi. Polsha konslagerida dastlabki kunlar yahudiy deb gumon qilinib 28000 turkistonlik otib tashlangani keyinchalik Isoqjonga ma'lum bo'ladi. U nemis tilini bilgani bois, turkistonliklarni yahudiylardan qanday farqlashni tushuntiradi va shu tariqa ko'pchilik turkistonliklarni o'lim changalidan asrab qoladi. Xuddi shu tarzda, yahudiylarga ham men turkistonlikman, deb aytishni, kerak bo'lsa, kalimai shahodatni yodlab, aytishni tayinlaydi. Ko'pchilik yahudiylar uning gapiga amal qilib, jon saqlab qolishadi.

Asirlar keyinchalik Kaunas (Litva) yaqinidagi lagerga ko'chiriladi. Bu yerda ular tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Isoqjon yarasi tuzalgach, Prussiyaning Eybenrot shahridagi konslagerga yuboriladi.

Dunyo hamjamiyati to-

liklar bilan o'zbek tilida gaplashadi va turkistonliklarning hayoti kelajakda yaxshi bo'lishiga ishonch bildiradi. Uning yonida turkistonlik Vali Qayumxon ham bor edi. Vali Qayumxon Turkiston milliy ozodligi uchun kurash olib borilayotgani to'g'risida gapirib beradi. Vali Qayumxon ular bilan suhbatlashib, Turkiston milliy ozodligi uchun kurashish istagida bo'lganlar ro'yxatini tuzadi. Keyinroq yana kelishini aytib, qaytib ketadi.

Ikki haftadan so'ng, bir guruh nemislar lagerga kelib ro'yxatni o'qib eshittirishadi, unda sobiq ofitserlar, ziyolilar bor edi. Ularni lagering boshqa tomoniga olib ketishadi. Keyin ularni Olmoniyaning Lyukinvold shahriga olib kelishadi. Bu yerda asirlarni nemis tiliga, ne-



Isoqjon Narziqul. Toshkent harbiy bilim yurti talabasi. 1941-yil.

edi. O'sha kunlari Isoqjon ham turkistonliklar orasida birinchilar qatorida serjantlikdan ofitserlikka o'tkaziladi.

Isoqjon Narziqulning SSSR hududiga qayta kirishi

1941-yilning so'nggi kunlarida Isoqjon Narziqul SSSRning Shimoliy Kavkaz hududiga jo'natiladi va Tavriya, Krasnodar, Stavropol, Rostov-Don va boshqa joylarda jangovar bo'lmagan turli ishlarga jalb qilinadi. Ular yirik zavod va kommunikatsiya obyektlarini qo'riqlashadi. 1942-yili u Germaniyaga chaqirtirilib, Ukrainaga jo'natiladi. Kiyevdan qaytgach, Isoqjon Narziqul Lyukenvold (Olmoniya) yonida joylashgan turkistonliklar uchun trening maktabiga keladi. So'ng Polshaga yuboriladi. Rahbarlarning maqsadi uning tajribasini har taraflama tezroq oshirish va boshqa kattaroq lavozimlarga tavsiya qilish edi. 1942-yilning may oyiga kelib Turkiston legionida xizmat qilishga yozma rozilik bildirgan turkistonliklar soni 130 mingdan oshgan edi. Vali Qayumxon rahbarligida turkistonliklar qurultoyi o'tkaziladi. Unda Vali Qayumxon qilindigan ishlar rejasi, Turkiston mustaqilligi uchun kurash to'g'risida ma'ruza qiladi.

Urushning ayni qizigan paytida Gimmmler va boshqalarning qarshiligiga qaramay, qurultoyi o'tkazishga muvaffaq bo'linadi. Isoqjon vatandan olisda bilimli, aqlli va ziyoli o'zbeklarni ko'rib juda quvonadi. Ruslarning turkistonliklar uquvsiz, bilimsiz kishilar, deb gapirishlari yolg'on ekaniga amin bo'ladi.

MavlON SHUKURZODA
(Davomi kelgusi sonda.)

mis harbiy texnikasidan foydalanishga o'rgatadilar. Isoqjon Narziqul turkistonliklar orasida yurib, o'shanda Turkiston zamini qanchalik boy o'lka ekanini, qadimdan savdo-sotiq markazi bo'lganini, uning yer osti boyliklarini Maskov tashib ketayotgani haqida birinchi bor eshitadi. Bir kuni ular oldiga Vali Qayumxon kelib, tez orada xushxabar eshitishlarini, Turkiston ham ozodlikka chiqishiga oz qolganini aytadi.

Sharqiy legion tarkibida birinchi Turkiston polkini tuzilishi

1300 turkistonlik yetti rotaga taqsimlanib, alohida batalyon tuziladi. Nemislar uni nima uchundir «Sherlar batalyoni» (Tiger battalion) deb ataydi. U paytlarda hali Turkiston legion tuzilmagan edi. Tuzilgan rotalardan biri kommunikatsiya-artilleriya va qolganlari piyoda-operativ guruhlar sifatida xizmat qiladi. Isoqjon Narziqul kommunikatsiya bo'limi boshlig'i – aloqa katta serjanti etib tayinlanadi va unga 240 ta askar beriladi.

1941-yilning 11-dekabrda Sharqiy legionning Turkiston batalyoni askarlariga Vermaxtning yangi kiyimlari topshiriladi. Batalyon askari kiyimining Vermaxt askari kiyimidan farqi, o'ng yengida «Alloh biz bilan» so'zlari yozilgan Turkiston emblemasi bor

AQShning Toshkentdagi elchixonasida bo'lib o'tgan navbatdagi "PressGap" uchrashuvi elchixonaning konsullik bo'limi faoliyatiga bag'ishlandi. Unda Konsul Devid Miko ishtirok etdi. Konsul o'z nutqida "Turli Millat Vakillari uchun Vizalar - DV" ("Grin Karta") dasturiga oid so'nggi yangiliklarni bayon qildi. Shuningdek, u "nohaqiqiy hujjat yoki anketa ma'lumotlari vizaga ta'sir qilmaydi", "viza olish haqida Konsuldan ko'ra tanish-bilishlarim ko'proq biladi, ulardan so'rash kerak", "vizani olib AQShga borgandan so'ng istalgan faoliyat bilan shug'ullanish mumkin" kabi mish-mishlarga ishonmaslikni, viza haqidagi har qanday ma'lumotni olish uchun AQSh elchixonasi saytiga (<http://uzbek.uzbekistan.usembassy.gov>) murojaat qilish yoki o'sha yerda ko'rsatilgan emailga xat yozish kerakligini va bu ma'lumotlar mutlaqo bepul taqdim etilishini ta'kidladi.

Quyida Konsul Devid Mikoning jurnalistlar bergan savollariga javoblarini taqdim etamiz.

— Janob Konsul, nima uchun "Grin Karta 2012" Lotereyasi natijalari bekor qilindi? Buning jiddiy sabablari bormi?

— "Turli Millat Vakillari uchun Vizalar - DV" ("Grin Karta") dasturiga bu yil butun dunyodan 14 milliondan ortiq kishi ariza topshirgan. Kompyuter xatosiga ko'ra, tasodifiy tanlash jarayoni arizalar topshirilishining dastlabki 2 kunida "Grin Karta" to'ldirgan kishilar o'rtasidagina o'tkazilgan. Kompyuter dasturi ulardan 90000 kishini g'olib sifatida tanlagan. Keyinchalik bu xato aniqlanib, DV 2012 natijalari bekor qilindi. Bungacha dastur saytidan 1 milliondan ortiq arizachi o'z maqomlarini tekshirishgan va 22000 nafar qatnashchi o'zlarining g'olib bo'lganliklari haqida tasdiqnoma olishgan. DV 2012 dasturida qatnashish uchun kiritilgan birlamchi murojaatlar tasodifiy tanlash jarayonidan qayta o'tkaziladi. Yangi tasodifiy saralash jarayoni natijalari 2011-yil, 15-iyuldan boshlab, dvlottery.state.gov sahifasidagi Maqom Tekshiruv funksiyasi orqali mavjud bo'lishini kutib qolamiz. Eslatib o'tamiz, har yili AQSh hukumati AQShga immigratsiya ko'rsatkichlari past bo'lgan mamlakatlar uchun «Turli Millat Vakillari uchun Immigratsion Vizalar - DV» dasturini o'tkazadi. Bu dasturda g'olib bo'lganlardan 50000 nafariga doimiy yashash huquqini beruvchi vizalar ajratiladi.

— Bunday holat birinchi marta sodir bo'lyaptimi? Qachondan beri tasodifiy tanlash jarayoni kompyuter orqali amalga oshiriladi?

— 15 yildan beri saralash jarayoni maxsus kompyuter dasturi orqali amalga oshiriladi. Bunday holat avval takrorlanmagan. Dasturning nosozligi sababi uning bu yil yangilanganidan bo'lishi mumkin.

— "Grin Karta" Lotereyasi bilan bog'liq bo'lgan qalbaki elektron xatlar va xabarlar soni kun sayin ko'paymoqda. Qanday qilib dasturda ishtirok etayotgan shaxslarning ma'lumotlari firibgarlarning qo'liga tushib qolmoqda?

— Firibgarlar nafaqat "Grin Karta" Lotereyasi ishtirokchilariga, bu dasturda umuman qatnashmagan shaxslarga ham email orqali immigratsion viza

yoki "Grin Karta" Lotereyasi va'da qilmoqdalar. Ular email-larni internetdagi turli manbalardan (forum, chat, ijtimoiy tarmoq) yig'adilar. DV dasturi ma'lumotlari hech kimga oshkor qilinmaydi.

— Bir do'stinga pochta orqali "Grin Karta" yutgani haqida muhrlangan hujjat kelibdi. Maktubda hech qanday to'lov haqida yozilmagan. Bu hujjat haqiqiy-mi?

— DV 2011 lotereyasiga murojaat etilgan arizalar maqomini tekshirish faqatgina dvlottery.state.gov sahifasi orqali amalga oshiriladi. Bundan boshqa har qanday pochta yoki elektron xabarlar nohaqiqiydir. "Grin Karta" uchun to'lov faqatgina konsul suhbatiga kirganda konsullik kassasiga to'lanadi va to'langanlik to'g'risidagi kvitan-

simdek, qur'a mutlaqo tasodifiy tanlanish asosida amalga oshiriladi. Bu dasturga ariza topshirganlarning soni bo'yicha ham Samarqand viloyati yetakchilik qiladi. Demak, qayerdan ko'p ariza topshirilsa, o'sha hudud-dan lotereya yutish imkoni shuncha ko'payadi.

— "Grin Karta" yutish viza olish uchun kafolat bo'la oladimi? O'zbekistondan "Grin Karta" yutsa-da, viza ololmaganlar bormi?

— "Grin Karta" yutganlik fuqaroga AQSh immigratsion vizasini olish uchun kafolat bo'lmaydi. Barcha hujjatlar tekshiriladi. Konsul suhbatidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'nggina unga immigratsion viza beriladi. Arizada ko'rsatilgan har bir raqam, foto haqiqiy bo'lmog'i kerak. Soxta hujjatlar taqdim etilganida arizachining ta-

NEGA SAMARQANDLIK KLAR KO'P "GRIN KARTA" YUTMOQDA?

siya taqdim etiladi.

— O'tgan mavsumda O'zbekistondan "Grin Karta" yutganlar haqida statistik ma'lumotlarni taqdim eta olasizmi?

— Yildan yilga "Grin Karta" lotereyasiga qiziquvchilar, ariza topshiruvchilar va yutayotganlar soni ortib bormoqda. Masalan O'zbekistondan 2007-yili 910 kishi "Grin Karta" asosida viza olgan bo'lsa, bu raqam 2008-yili 2100 ga, 2009-yili 2200 ga, 2010-yili 3200 ga yetgan. O'zbekiston eng ko'p "Grin Karta" yutayotgan davlatlar orasida 7-o'rinni egallaydi. "Grin Karta" yutganlarning o'rtacha oilaviy ahvoli 2,8 kishini tashkil etmoqda. O'rtacha yosh esa 30 dir. Ulardan o'rta ma'lumotlilari 31%, kollej ma'lumotiga egalari 35%, bakalavrlar 28%, magistr-lar 5% ni tashkil etmoqda. G'olib bo'lganlarning 63%i Samarqand viloyati vakillari bo'lsa, 28%i Toshkent shahri va viloyati hissasiga to'g'ri kelmoqda. Boshqa viloyatlar ko'rsatkichlari ancha past. "Grin Karta" orqali viza olganlarning 74%i Nyu-Yorkka yo'l olishmoqda.

— Nima uchun samarqandliklar ko'p "Grin Karta" yutmoqda? Buning biron sababi bormi?

— Avval ta'kidlab o'tga-

labi qondirilmaydi. Bu yil ham shunday holatlar bo'ldi. Hatto, ba'zilar anketada boshqa rasm va familiya bo'lgani holda uning o'zlari ekanligini isbotlashga urindilar. Lekin bunday noaniqliklar viza berilmasligiga sabab bo'ladi.

— "Grin Karta" yutgan shaxs o'sha yilning o'zida hujjatlarini topshirmasa, keyingi yilda unga viza beriladimi?

— "Grin Karta" dasturi hujjatlari faqat o'sha muayyan yilda ko'riladi. Keyingi yil uchun esa boshqatdan ariza topshirishga to'g'ri keladi.

— O'zbekiston uchun keyingi yillarda "Grin Karta"ga 5000 ta o'rin ajratilishi mumkinmi?

— Yo'q, bir mamlakatdan yiliga eng ko'pi bilan 3500 kishiga "Grin Karta" beriladi.

— AQShda nolegal ishlab yurgan shaxs "Grin Karta" yutsa, unga immigratsion viza beriladimi?

— AQSh qonunchiligiga ko'ra, immigratsiya talablarini buzgan shaxslar uchun 5 yil, ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra undan ham ko'p muddatga AQSh hududiga kira olmaslik taqiqi qo'yiladi. Bunday holatda "Grin Karta" yutgan shaxsga viza berilmaydi.



Konsul Devid Miko. AQSh elchixonasi taqdim etgan surat.

— Fuqaro "Grin Karta"ga topshirgan holda boshqa noimmigratsion vizalarga topshirishi mumkinmi? Uning "Grin Karta" o'ynagani boshqa vizalarga to'sqinlik qiladimi?

— Avtomatik tarzda to'sqinlik qilmaydi. Agar ariza topshiruvchining ishonchli va haqiqiy asoslari bo'lsa, unga noimmigratsion viza beriladi.

— Fuqaro "Grin Karta"ga topshirganda boshqa familiyada bo'lib, so'ng uni o'zgartirsa, bu ham im-

marta Eronda xizmat safarida bo'lgan. Eron vizasi bo'lgan pasport bilan AQSh konsulxonasiga noimmigratsion viza uchun murojaat qilish mumkinmi?

— Biron bir davlatga borganlik AQSh vizasini olishga monevlik qiladi degan qoida mavjud emas. Agar uning hujjatlari, asoslari haqiqiy bo'lsa, unga Amerika vizasi beriladi.

— Sayohat firmasidagi bir tanishimning aytishicha, barcha davlatlarga ochiq bo'lgani holda AQShga sayohat vizalari berilmasmish. Shu to'g'rimi?

— Yo'q, aksincha, AQShga berilayotgan vizalarning eng ko'p qismini sayohat vizasi tashkil qiladi. Odatda, bunday sayohat vizalarning aksariyati AQShga qarindosh yoki do'stlarini ko'rib kelishga borayotgan murojaat etuvchilarga beriladi.

— Konsullikdan 6 oyga sayohatchi vizasi olinsa, to o'sha muddat tugaguncha AQSh hududida qolish mumkinmi?

— Vizaning amal qilish muddati va AQShda ruxsat etilgan qolish muddati farqli tushunchalardir. Odatda bu masalani aeroportda siz bilan suhbat qilgan immigratsion xizmat vakili hal qiladi. U sizning tashrif maqsad-ingizga ko'ra, AQShda qolish muddatini belgilaydi.

— AQSh ish vizasini olish uchun chaqiriladigan xodimlarga xat tayyorlab, ularning viza olishlariga ko'maklashuvchi biron tashkilot bormi?

— Bunday tashkilot yo'q. Biznes (ish safari) toifasidagi vizalarga murojaat etish uchun DS-160 elektron anketa to'ldiriladi. Shuningdek, ular Petitsiya - I-129 Shakli yoki I-797 qaror xabarnomasini olishlari kerak. Bu hujjat Davlat Xavfsizligi Departamentida murojaat etuvchining bo'lajak ish beruvchisi tomonidan rasmiylashtiriladi.

Davronbek TOJALIYEV tayyorladi. davronbek@vatandosh.com

migratsion viza olishga to'sqinlik qiladimi?

— Fuqarodan avvalo nega familiyasini o'zgartirgani so'raladi. Familiya yoki ism o'zgartirilgani haqidagi hujjatlar o'rganib chiqiladi. Agar asos haqiqiy bo'lsa, ism va familiya o'zgartirilgani viza berilishida to'sqinlik qilmaydi.

— Eshitishimcha, keyingi yilga "Grin Karta" lotereyasini uchun O'zbekistonga ulush ajratilmas ekan. Shu rostmi?

— Bunday xabar menga yetib kelmadi. Odatda so'nggi 10 yil ichida AQShga kelgan immigrantlar soni 50000 dan oshgan davlatlar uchun "Grin Karta" ajratilmaydi. O'zbekistonlik immigrantlar soni hali bu limitga yetmadi.

— Viza olingan pasport yo'qolsa, konsullik vizani qayta almashtirib beradimi?

— Konsullikda viza berilganligi haqidagi axborot saqlanadi. Shunga ko'ra, pasporti yo'qolgan shaxs qaytadan vizaga murojaat etishi mumkin. Yangi murojaat ko'rib chiqilganda ilgari berilgan viza haqidagi ma'lumotlar va bu shaxsning vizadan qay tarzda foydalangani ko'rib chiqilib, qaror qabul qilinadi.

— Hamkasbim bir necha

SIZ SOG'INGAN ASARLAR

(Davomi. Boshi oldingi sonda.)

«GIRGITTON BUVI»NING YAPON NEVARASI

Hali maktabga qatnamasdim. Kuz pallasi tomog'imga «tepki» kelib, bo'ynim shishib ketdi. Oyim «irimini qilish» uchun «Girgittan buvi»nikiga olib chiqdi.

Dunyoda «Girgittan buvi»dan muloyim, undan mehribon odam bo'lmasa kerak. Hamma bilan «buving girgittan» deb aylanib-o'rgilib ko'rishadi... Buvining hovlisiga kirsak, etakdagi devor tagida allaqancha yong'oq dumalab yotibdi. Kechasi shamolda to'kilgan bo'lsa kerak. Yugurib borib, tera boshladim. Bir mahal ayvon tomondan «Girgittan buvi»ning ovozi keldi:

— Hay, hay, girgittan, tegma yong'oqqa! — Shunday deb ildam keldi-da, qo'limdagi yong'oqlarni olib, pastak devor osha naryoqqa uloqtira boshladi.

So'ng xazon orasida yotgan boshqa yong'oqlarni ham enkayib tergan-cha, de-

yashnab yotgan bog' oldidan o'tdik. Yo'l cheti keta-ketguncha shaftolizor. Zarg'aldoq shaftolilar g'arq pishgan. Har biri kichikroq choynakdek keladi. Mehmon nimanidir zavqlanib gapirdi. Tarjimon mehmon janoblari bu bog' kimniki ekanini so'rayotganlarini aytdi. Yaponiya, Koreya, Xitoy singari mamlakatlarda shaftoliga ayri-ayri ixlos qo'yishlarini eslab, haydovchidan mashinani to'xtatishni so'radim. Yo'l chetidagi ariqchadan hatlab o'tib, qo'limga siqqancha shaftoli uzib oldim. Buni qarangi, nariroqda temir quvurdan suv



oqib turgan ekan. Shaftolilarni chayib, olib keldim. Mehmonga uzatdim. Mehmon odob bilan jilmaydi, ammo qat'iy bosh chayqadi. O'z tilida hayajonlanib,

vor ortiga tash-

ladi. Buvining bunday «qizg'anchiq»ligiga hayron bo'lib turib qoldim. Nihoyat to'kilgan yong'oqlar qolmaganiga ishonch hosil qilgach, qo'limdan yetakladi. «Yuraqol, girgittan, sanga boshqa yong'oq beraman!» Shunday deb, pastak bostirmaga olib kirdi-da, savatda uyilib yotgan yong'oqlardan hovuchlab olib, do'ppimni to'ldirib berdi...

So'ng tushuntirdi:

— Devorning naryog'ida qo'shnining ham yong'og'i bor. Sen tergan yong'oq qo'shnining daraxtidan to'kilgan bo'lishi mumkin. Birovning haqini o'zidan so'ramasdan olsa, gunoh bo'ladi, girgittan!

Bu gaplarni unutib yuborgan edim-ku, oradan ko'p yillar o'tib tag'in yodimga tushdi.

Yaponiyadan bir guruh martabali mehmonlar tashrif buyurishdi. Ular orasida Yaponiya parlamenti rahbarlaridan biri ham bor edi. Shu kishiga hamroh bo'lib Samarqandga bordik. Mehmon ikkovimiz va tarjimon bir mashinada ketyapmiz. Samarqand qishloq tumanida borayotib,

...Shunda dunyodagi bani insonning hammasini Xudo yaratganiga, ular orasida fe'l-atvori, insof-vijdoni bir-biriga juda o'xshashlari oz emasligiga yana bir karra iymon keltirdim...




FARISHTALAR

Xonadoningizda kekxa odam bormi? Baxtli ekansiz! Dunyo tashvishlaridan to'yib ketsangiz, shularni ziyorat qiling: hayot abadiy emasligini o'ylab, taskin topasiz.

Xonadoningizda go'dak bormi? Siz ham baxtli ekansiz... Dunyo tashvishlaridan to'yib ketsangiz, go'dakni bag'ringizga bosing: hayot abadiy ekanini o'ylab, taskin topasiz...

O'TKIR HOSHIMOV

Daftar hoshiyasidagi bitiklar



— Ehtiyot bo'l, tom labiga borma!
— Uyg'ir kirsangiz-chi! —

dedim og'rib.

Tunuka tomni taraqturuq bosib, qiyshaygan tarnov oldiga keldim. Uvallo urinaman, tarnov la'nati o'nglansa qani! Zanglab ketganmi, bo'yog'i yopishib qolganmi...



Aksiga olib, yomg'ir shivalay boshladi. Avvaliga tomchilab turdi-da, keyin shiddat bilan yog'ib ketdi. Tom labida o'tirgan-cha, tarnovni qo'shqo'llab surishga urindim. Qilt etmaydi!

Pastdan yana onamning ovozi keldi:

— Menga qara, bolam. Narvon oldiga qaytib keldim.

— Nima deysiz?

— Jon bolam, mana buni ki-yib olgin...

Qarasam, onam bir qo'li bilan narvonni changallagan-cha, ikkinchi qo'lida to'n ushlab turibdi. Yupqa ro'moli, nimchasi



Bola emizib o'tirgan ayolga zimdan razm soling... Go'dagiga

ko'ksini tutib termilib o'tirgan onaning ko'zlariga sinchikla-a-a-b tikiling...

Eng oliy tuyg'u nimaligini shunda ko'rasiz!

TARNOV

Erta bahor edi. Hordiq kuni edi. Kech turdim. Hovliga tushsam, havoning avzoyi buzuq. Yuvinib chiqib qaragam, tunuka tom peshidagi tarnov bir tomonga qiyshayib yotibdi. Qishda yoqqan qor zalvoridan qiyshayib qolgan shekilli... Qattiqroq shamol bo'lsa, tushib ketadigan...

Yo'lakda yotgan narvonni ko'tarib kelib tomga tiraguncha tinkam quridi, zax tortib, zildek bo'p ketibdi.

Narvon zinasiga oyoq qo'yishim bilan ayvondan onam tushib keldi.

— Nima qilmoqchisan? — dedi ko'zimga termilib.

— Hozir, — dedim beparvo qo'l siltab. — Tarnov qiyshayib qopti.

— Shoshma, bolam, avval choyingni ichib ol...

— Hozir tushaman.

Shunday dedim-u narvongatirmashdim. Tomga chiqishim bilan pastdan onamning xavotirli xitobi eshitildi:

ho'l bo'lib ketgan...

Xunobim oshdi.

— Hozir tushaman, dedim-ku! Men yosh bolamanmi?

— Shamollab qolasan!

— Obbo! Siz uyga kiravering!

Hozir tushaman. Shunday deb, tag'in tarnov oldiga qaytdim. Jahl bilan tarnovni mushtlay boshladim.

Bir mahal pastdan yana ovoz keldi:

— Ada! Adajon!

— Ha! — dedim battar xunob bo'lib.

— Varragim yirtildi!

Qarasam, yetti yashar o'g'lim hovli o'rtasida turibdi. Oyog'i ostida yirtilib, qamishlari qovurg'adek turtib chiqqan varrak loyga qorishib yotibdi. O'zi ko'ylakchan. Boshyalang. Yomg'ir ostida diydirab turibdi.

— Uyga kir, Farruh! — dedim baqirib. — Uyga kir, shamollab qolasan!

Quloq solsa qani! Goh varragiga, goh menga qaraydi. Kapalagim uchib ketdi! Tomda sirg'alib-sirg'alib, narvon tomon yugurdim.

Uch-to'rt pillapoya tushib qaragam, onam hamon narvon oyog'ini changallab turibdi. Ro'moli jiqqa ho'l bo'lib, sochlariga yopishib qolgan... Bir qo'li narvon oyog'ida. Bir qo'lida to'n...



INSON

Inson shu qadar buyukki, uning fazilatlarini o'lchash — dunyodagi eng baland tog'ning eng baland cho'qqisiga emaklab chiqish zahmati bilan teng.

Inson shu qadar tubanki, uning illatlarini o'lchash — dunyodagi eng baland tog'ning eng baland cho'qqisidan emaklab tushish zahmati bilan teng.

«OTCHOPAR»DA

«Otchopar» bozorida qadrdon do'stimni uchratib qoldim. Matematik... Olim... Sigaret sotib o'tirgan ekan... Meni ko'rib ko'zini yashirdi. Men ham burilib ketdim... Ikkalamiz bir-birimizdan nega uyalganimizni bilmayman.

Negadir... yig'lagim keldi...

OLIY HAKAM

Bu dunyoda ham, u dunyoda ham hech kimga bo'ysunmaydigan, oqni — oqqa, qorani — qoraga bexato ajratadigan Oliy hakam bor. Bu — Tangri-ning hukmi!

(Davomi kelgusi sonda.)

Bismillahir rohmahir rohiym.

Bir kuni Iso alayhissalom ashoblari bilan yo'lda ketayot-salar, harom o'lgan itni ko'rishibdi. Ashoblar hammalari bur-nilarini yopib:

— Namuncha sasimasa, badbaxt, — deyishsa, Iso alay-hissalom:

— Tishini oqligini qarang, — deb undan ham bir yaxshilik topgan ekanlar.

Foyda: Har narsaning tubida yaxshilik yashiringan. Insonlar esa har xil. Kimdir ayni narsaning yomon jihatini ko'rsa, fazl ahli esa undan doim yaxshi jihat qidiradi.

OTA-ONANING FAZLI

Rasululloh s.a.v. aytdilar: "Ota-onangizga bir mar-ta mehribonlik nazari bilan qarasangiz, bitta haj va bitta umra savobi beriladi".

Bir sahoba savol berdilar: — Yo Rasululloh s.a.v., agar bir kunda ming marta qara-sam-chi?

— Alloh taoloning fazli sen-ga 1000 ta haj va umra yozish-dan kamaymaydi, — deb javob berdilar Rasululloh s.a.v.

Bir odam kelib Rasululloh s.a.v.dan so'radi:

— Yo Rasululloh s.a.v., men onamga 30 yildan beri xizmat qilaman, onam esa menga 3 yil xizmat qilgan xolos. Haqini ado etoldimmi?

Rasululloh s.a.v. javob ber-dilar:

— Yo'q, chunki, onang sen-ga 3 yil xizmat qilgan bo'lsa-da, har zamon sening o'lib qolmasliging umidida xizmat qilgan, bu xizmatdan u malol-lanmagan, sening esa qalbing-da bu xizmatlardan qachon qutularkanman, degan fikr turadi.

Yana Rasululloh s.a.v. ayta-dilar:

"Ota-ona haqiga farzand duosini to'xtatsa, Alloh uning rizqini kamaytiraveradi".

OTA-ONA KIM?

Rasululloh s.a.v.dan so'ra-dilar:

— Ota-ona kim?
— U sening Jannating yoki Do'zaxingga hujjatdir.

QO'SHNING HAQI

Taqiy Usmoniy hikoya qila-dilar:

"Makkai mukarramada bo-zorga kirib, bir matoni so'ra-

dim. Do'kondor o'sha matoni topgunga qadar oldimga 20 tacha o'ramdagi gazlamalarni to'kib soldi. Ularning ichidan bittasi menga ma'qul tushib, shuni sotib olmoqchi bo'ldim. Narxiyam ma'qul keldi. Sotuv-chi:

— Siz shu ma'qul keldi-a?
— Albatta ma'qul keldi.
— Unda yo'lning uyog'iga o'tsangiz, huv anau do'konda ham shu gazlamadan bor. O'sha yerdan sotib oling.

— Ie, nega endi? Ham-ma narsani shu yerda savdo qildim, sizning ham qancha vaqtingizni oldim. Nega endi undan sotib olarkanman. Bu-ning siri nima-da?

— To'g'ridagi sotuvchi men-ing qo'shnim, ko'ryapmanki, e r t a l a b d a n beri hech nar-sa sotmadi. Men esa an-cha narsa sotib qo'ydim..."

BUYRAKCHA VA MIYACHA

Taqiy Usmoniy Alloh taolo ne'matlari haqida tafakkur qilar ekan, shunday deydi:

"Akam Rafe' Usmoniy yer yuzidagi eng zabardast buyrak-shunos olim bilan uchrash-ganda shunday savol bergan ekan:

— Sizlar bir odamning buyragini saqlab qolish uchun ikkinchi odamdan 50-100 000\$ga buyrak sotib olib, uni ulayapsizlar. Shunga qudra-tingiz yetyapti, yangi buyrak yasolmaysizlarmi?

— Hazrat, buyrakning ichi shunaqangi nozik iplardan yaratilganki, farazan dunyo olimlari oyoqqa tursa ham bir santimetrini yasolmaydi. Ma-bodo yasadi ham deylik, lekin bir narsa bandaning qo'ldan kelmaydi. U buyrak ichidagi miyachadir. U buyrakka qan-

cha energiya, suv talab qilini-shi, uning ishlashini nazorat qiladi. Bu miyachani yasash insonning qo'ldan kelmaydi."

TANGANING IKKINCHI TOMONI

Abu Hurayra r.a. aytgan ekanlar:

"Sen xotining xunuk bo'lgani uchun kuyinma, bir kun senga go'zal farzand-ni tug'ib beradi — xursand bo'lasan".

Inglizlarning bir maqoli bor:

"Buzuq soat ham kuniga 2 marta to'g'ri gapiradi."

BADXLQ AYOL — MENING MARTABAM

Buyuk tasavvuf shayx-laridan Mirzo Mazhari Joni-Jononning ayoli juda bad-jahl, yomon xotin bo'lgan

sohibisiz.

— Mening erishgan barcha ilmim, martabam, shu xotinim-dan. Uning bu azoblariga sabr qilganimdandir. Agar men bir kun uning holini so'ramasam, martabamdan tushib qola-man. Endi qanday qilib, meni shu darajaga olib chiqqan xo-tinimni taloq qilay...

MUSULMONNING VAFODOR AYOLI

Ashraf Ali Tahonaviy ayta-dilar:

"Musulmonning xotinidek ayolni dunyoda topolmaysiz. Uning kabi vafodorni olamda yo'q. Buning isboti shuki, u er-ning xizmati bilan birga uning ota-onasi, aka-ukasining ham xizmatini qilib, duosini olaveradi. Vaholanki erning ota-onasiga xizmat qilish unga vojib emas. Uzoq qarindoshin-giz kelsa ham uni ham ochiq chehra bilan kutib olaveradi. Siz yillab musofirlikda yursan-giz ham sizni kutib yuraveradi. Vaholanki, ayolning ruxsatisiz

4 oydan oshiq muddatga mu-sofir bo'lish mumkin emas. Kechasi soat 2 da kelsangiz ham, eshikni ochib, sizga ovqat ham qilib beraveradi..."

Shu ncha xizmatlariga yarasha bu ay-ollarning tillari

shirin bo'lganida edi... Jid-diysini qo'ying, og'zilaridan chiqqan hazil duo ham qabul bo'lib ketardi. Adashib duo qil-salar ham Alloh qabul qilave-rardi..."

"16-17 ga kirgan yosh-gina qiz "O'zingizni bag'ishladingizmi?" degan birgina so'zga vafodorlik qilib, o'z xonadoni, ota-onasi, yaq-inlarini tashlab, seniki bo'lib o'tiribdi. Lekin sen badbaxt "La ilaha illalloh" deding-u, Xudoniki bo'lmading..."

OVQATNI MAQTASH HAM SUNNATDAN

Abdulhay Laknaviy bir kuni er-xotin muridlarinikiga mehmonga boribdilar. Ovqat nihoyatda mazali bo'lgan ekan (odatda, shayx Rasululloh s.a.v.ning sunnatlariga ko'ra, ovqatni doim maqtarkan),

HIDOYAT

parda ortidagi ayolga qarata: — Alloh rozi bo'lsin, ovqat-ingiz juda mazali chiqibdi, — debdi.

Bu gapni eshitgan ayol yig'lab yuboribdi. Shun-da shayx buning sababini so'raganda shunday javob ber-gan ekan:

— Erim bilan 40 yildan beri birga yashayman. Lekin biron marta ham menga ovqatimni maqtamagan. Sizdan birin-chi marta bu gapni eshitib, ko'zimga yosh keldi.

SUVI OQQAN INGLIZ

Hindiston shayxul-islo-mi Husayn Ahmad Madaniy poyezdda shogirdlari bilan birga ketayotsalar, oldilari-ga bir ingliz kishi ayoli bilan chiqib o'tiribdi. U zotga xizmat qilayotgan muridlarni ko'rib, bu qaysi mashhur odam ekan, deb surishtiribdi. U kishining shayxul-islom ekanini bilgach, savol beribdi:

— Hazrat, mening bir masalada Islomga e'tirozim bor. Nega sizlarda ayollarni yopinib yurishga buyurilgan? Go'yoki ochiq kiyinish erkak-larning yo'ldan urilishiga sa-bab bo'larkan, zinoga da'vat qilar ekan? Mana, mening xo-tinim, sochlarini yoyib, kalta kiyimlarni kiyib olib, oldimda o'tiribdi. Ayting-chi, u ushbu poyezdda ketayotgan kimni gunohga da'vat etyapti?

Hazrat javob bermabdilar. Indamay o'tiraveribdilar. Bir soatdan so'ng shogirdlaridan biriga limon choy buyuribdi-lar. Shakar solingan choyga limonni to'rg'ayotib, inglizga qarasarlar, limonning mazasiga og'zidan suvi kelayotgan ekan. Shunda aytibdilar:

— Og'zingizga suv keldimi? Limon shunday narsaki, ta-biatan nordon bo'lganligi sa-babli, uni kesilganda odamning og'zidan suv keladi. Kichkinagina, jonsiz limon suvingizni oqizib yubordi-ku. Xotiningizning esa joni bor, go'zalligi, husni jamoli bor, jodu ko'zlari bor. Qanday qilib u birovlarining og'zidan suvni oqizdirmaydi?

Yorqinjon qori ma'ruzalari asosida AbdulAziz tayyorladi.

www.ziyouz.com

Ziyo istagan qalblar uchun!

O'zbek tilidagi eng katta ma'naviy internet portali. Maqolalar, kitoblar, roman va qissalar, hikoyalar, xalq og'zaki ijodi, tarix, hikmatlar...

DILDAN SUHBAT

Shu yilning aprel-may oylarida Kolumbiya universitetida bo'lib o'tgan ikki xalqaro konferensiyada ishtirok etish maqsadida Amerikaga safar qildim. Sayohat davomida Markaziy Osiyo, xususan, o'zbek tili va adabiyotini o'rganuvchi markaziy universitetlar – Garvard, Kolumbiya, Indiana, shuningdek, xalqaro kutubxonalarining Osiyo bo'limlarida bo'lib, u yerdagi o'zbek adabiyoti va uning tarjimalari bilan shug'ullanuvchi olimlar bilan maxsus uchrashuvlar, davra suhbatlari uyushtirishga harakat qildim. Suhbat mobaynida oliygoh o'qituvchi va talabalarining o'zbek tili va adabiyotiga bo'lgan qiziqishi, Navoiy, Bobur, Cho'lpon, Fitrat ijodidan namunalarini yod aytib berganliklari, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Qush tili" dostonlari, "Shaytanat", "Muvozanat" romanlari haqida tutilib, qiynalib bo'lsa-da, fikr yuritishlari meni quvontirdi.



O'zbek adabiyotining Amerikadagi muxlisalaridan biri Reychel Harrel xonimdir. Reychel Harrel ko'p yillardan beri Michigan universiteti Slavyan tillari va adabiyoti bo'limida faoliyat ko'rsatib, XX asr zamonaviy o'zbek adabiyoti va uning ingliz tiliga tarjimasi muammolari mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib boryapti. Ilmiy ishiga oid bir necha maqolalar e'lon qilgan. Xalqaro anjumanlarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etib, milliy adabiyotimizni jahonga targ'ib qilayotgan olimlardan biri. Reychelning fikricha, u o'zbek adabiyoti va she'riyatining haqiqiy ixlosmandi. U tadqiqotini kelasi yili himoya qilishni rejalashtiryapti.

Tadqiqotining o'zbek modern she'riyati va tarjimasi tahliliga bag'ishlangan qiziqarli fikrlari "Talabalar dunyosi" jurnalining o'tgan yili 1-2-sonlarida "Ko'klamdan ko'klamga (O'zbek modern she'riyatini ingliz tiliga o'girishga doir mulohazalar)" sarlavhasi ostida nashr etilib, kitobxonlar tomonidan yuqori baholangan edi. Harrel xonimning "O'tish davrida o'zbek adabiyoti ovozlarini. Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani voqeasi" nomli maqolasi 2007-yil Markaziy Yevrosiyo masalalariga bag'ishlangan 8-xalqaro anjumanning madaniyat sho'basida o'qib eshittirilgan.

Reychelning kitob javoni o'zbek ijodkorlarining nasriy va she'riy asarlari bilan to'la. O'zbekistondan ham makon, ham tafakkur jihatidan ancha yiroq bo'lgan g'arb olimasining o'zbek adabiyoti, she'riyatiga muhabbatining sababi, sir-sinoati nimada? Ruhiiy yaqinlikmi? Jozibasi yoki umumbashariy mezonlarga tutashligimi? Bu savolimizga Reychelning javobi lo'nda va qisqa bo'ldi:

– O'zbek adabiyotidan izlagan nar-samni topaman. Men nimani o'ylasam, unda mujassam. Uning dunyo adabiyotiga tenglashadigan jihatlari ko'p, faqat gap o'sha jihatlarni yetkazib berishdagi muhim vosita – tarjimada.

Quyida o'zbek adabiyotining Amerikadagi tadqiqotchisi va tarjimoni, Michigan universiteti doktoranti Reychel Harrel bilan qilgan suhbatimizni e'tiboringizga taqdim etmoqchimiz.

– XX asr o'zbek adabiyotiga va o'zbek adabiyotidagi tarjima masalalariga bo'lgan qiziqishingizning asosiy sababi nima?

– Avvalo, meni o'zbek tili o'ziga rom etgan. To'qqiz yil oldin Alloh menga musulmon bo'lish baxtini nasib etganda musulmon davlatlarida yashovchi odamlar bilan uchrashishni, ulardan bilmagan narsalarimni ko'proq o'rganishni istadim. O'sha paytlarda faqat rus tilini yaxshi bilardim. Shundan keyin O'zbekistonga borishga qaror qildim. Toshkentga kelib, tez orada o'zbek tilini o'rgana boshladim. Tajribali o'qituvchim sabab kundan kun o'zbek tiliga bo'lgan mehrim orta boshla-

NEGA DUNYO O'ZBEK ADABIYOTINI TANIMAYDI?

di va nihoyat men uni chin dildan yaxshi ko'rib qoldim.

Meni qiynayotgan muammoning yechimi XX asr o'zbek adabiyoti ekanligini angladim. Bugungi kun, bugungi dunyo qiyofasi aks etgan zamonaviy adabiyot yo'nalishlaridagi voqeliklarga yaqinroq ekanligim va uni osonroq tushuna olishim mumkinligini angladim.

– Bugungi o'zbek tilidan ingliz tiliga, yoki ingliz tilidan o'zbek tiliga qilinayotgan tarjimalardagi asosiy kamchilik nimada deb o'ylaysiz?

– Birinchidan, ingliz tilidan o'zbek tiliga to'g'ridan to'g'ri, bevosita tarjima qilinayotgan asarlar juda kam bo'lganligi bois bunday tarjimalarda anchagina g'alizliklar uchraydi. Ko'pincha, tarjimonlar qo'llariga nima tushsa, asarning ingliz zabon adabiyotidagi tutgan o'rni haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmay turib tarjima qilishaveradi. Natijada mutaxassis bo'lmagan oddiy kitobxon tarjimon zamonaviy shoh asarni targ'ib qilyaptimi yoki bir mavsumdan nariga o'tmaydigan yengil-yelpi asarnimi kabi savollarga javob topa olmay boshi qotadi.

Yana bir shunga bog'liq muammo – badiiy asardagi xalqning kundalik turmush tarziga oid o'rnlarni kitobxonga to'g'ri yetkaza olmaslik. O'zbek tarjimonlari Yevropa va amerikaliklarning boy madaniyati xususida yaxshi bilimga egadirlar. Ammo ular kundalik hayot va xalqning oddiy madaniyatiga aloqador detallarni tarjima qilishda osongina xatoga yo'l qo'yishlari, yanglishlari mumkin. Kundalik hayotga aloqador detallarni yaxshi tushunmagan tarjimon ulardan voz kechishga, yoki silliqlashga, qolaversa, haspo'shlashga harakat qiladi, ammo bunday o'ziga xos detallarning yo'qolishi kitobxon uchun muammo tug'diradi. Asarni jonli qilib turgan qismlar olib tashlangandan keyin asarning badiiy kuchi, undagi o'ziga xoslik yo'qoladi va badiiy asar bor-yo'g'i kundalik inson-

lar muloqotining zerikarli hisobotiga aylanib qoladi.

– Bugungi kunda ayrim o'zbek olimlari zamonaviy she'riyat (modernizm)ga nisbatan salbiy munosabatdalar. Ularning fikricha, bunday she'riyat kishiga estetik zavq bera olmaydigan, sovuq va hissiz. Siz qanday fikrdasiz?

– Ularning modern she'riyatga bo'lgan munosabatini tushunaman. Ammo men unday fikrda emasman. To'g'ri, ma'lum bir uslubdagi she'riyatni o'qib ulg'aygan kitobxon aynan shu uslubga o'rganib qoladi va boshqa uslublarni tushunish uchun ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi, ammo badiiy adabiyotdan olish mumkin bo'lgan estetik zavqning turli xil shakllari mavjud. Zamonaviy she'riyat an'anaviy she'riyat kabi jarangdor yoki ohangdor bo'lmasligi mumkin. Ammo uning o'ziga xos, bizni maftun etadigan jihatlari ham oz emas. Aslida modern she'riyat yangi mazmun mohiyat orqali "ko'zimizni ochadigan" kutilmagan jozibadorlik, so'zlardagi obrazlilik, oldin biz hech qachon eshitmagan ritmik shakllar

kabi xususiyatlarni o'zida aks ettira olish imkoniga ega. Modernizm bizga tanish so'zlar, bizga ma'lum bo'lgan til qoliplaridan otilib chiqqan. To'g'ri, ba'zan u yoqimsiz, ba'zan qo'pol va hatto tasavvurlarimizni o'stin-ustun qiluvchi bo'lishi ham mumkin, ammo biz hech qachon e'tibor qilmagan, xayolimizga kelmagan o'rnlardagi go'zallikni oshkor qiladi.

– Sharq va G'arb modernizmi o'rtasida qanday asosiy tafvutlar mavjud?

– Asosiy farq, albatta, jarayonda. Hozir Yevropa va Amerikada modernizm tarixiy hodisaga aylanib, o'z o'rnini ancha oldin postmodernizmga bo'shatib berdi. O'zbekistonda esa bu jarayon hali ham davom etyapti. XX asr boshlaridagi modern she'riyatga xos jihatlari – o'z imzosiga ega bo'lish, turli shakllarda o'z o'zini kashf qilish tajribasi, mavhumlikka moyillik, larzaga solish ishtiyoqining kuchliligi, kamida mavjud ta'sirchanlikka yana yangi ma'nolarni yuklash zamonaviy o'zbek she'riyatining ham eng muhim xususiyatlari ekanligi, ma'lum ma'noda G'arb modernizmiga ergashish holatlari – kuzatilsa-da, u adabiy hodisa ekanligi bilan farqlanadi.

Nazarimda, o'zbek modernizmi o'tmishni inkor qilish yoki undan nusxa olishga qiziqmaydi. Agar modernistlar sovet hukmronligi davridagi qat'iy chegaralarni kengaytirishni istasalar, ular buni ko'z bilan ongni qo'zg'atish va uzoqroq bo'lgan milliy o'tmishga munosabatlari orqali amalga oshiradilar. Shuningdek, o'zbek modernizmi o'z ovozigacha ega bo'lsa-da, unda G'arb modernizmida mavjud bo'lgan kuchli xudbinlik hissi yo'q.

Modernistlarning shaxsiy injiqliklari-ga qaramasdan ular o'z ovozigacha, xarakteriga va o'z fikriga ega bo'layotganliklarini ularning ijodi misolida ko'rish mumkin. Aytish mumkinki, bu ovoz O'zbekiston nomidan so'zlay olish kuchiga ega.

– Xorijda o'zbek adabiyotini qay darajada bilishadi?

– Afsuski, xorijda o'zbek adabiyotini deyarli bilishmaydi. Faqat Markaziy Osiyoni o'rganishni maqsad qilgan ayrim olimlarga o'zbek adabiyotidan xabardor bo'lishi mumkin. Hatto bunday olimlarning ko'pchiligi adabiyotdan boshqa sohalarida, xususan, tarix, iqtisod, siyosat yoki ekologiya yo'nalishlarida tadqiqot olib borishga harakat qiladilar. Amerikaliklarning bugungi O'zbekiston haqidagi tasavvurlari biror bir ish yuzasidan yurtimizga sayohatlari yoki kechki yangiliklarda kamdan-kam berilib qoladigan kichik xabarlardangina paydo bo'lgan. Albatta, bularning hech qaysisi O'zbekiston haqida to'la va ijobiy tasavvurga ega bo'lish uchun yetarli emas. Bu qiziqish, umuman, yo'q degani ham emas.

Amerikaliklar – hech bo'lmaganda ularning ziyoli qatlami – O'zbekiston Rumi, Hofiz, Sa'diy singari murakkab, lekin sirli "sharq madaniyati"ga mansub, degan mavhum tushunchaga ega. Yana ularning o'ylashlaricha, Markaziy Osiyo musulmonlari inoq, yakdillikda tinchliksevar, mulohazali va butun dunyo muammolarini yecha olish imkoniga ega. Albatta, bu talqinlarning hammasi ham to'g'ri emas, ammo ular dastlabki mulohazalarini namoyish etyaptilar.

– O'zbek adabiyotini tarjima qil-sa bo'ladimi? U dunyoga qiziqmi?

– Bugungi o'zbek hayoti aks etgan romanlar, hikoyalarning ingliz zabon muxlislarini topishida yaxshi imkoniyatlari bor deb o'ylayman. Bu fikrni men bugungacha o'qish imkoniga ega bo'lgan o'zbek so'z san'ati namunalarining badiiy quvvatiga asoslanib aytayapman. Ammo, afsuski, she'riyat bu fikrdan mustasno. Chunki AQShda she'riyat ixlosmandlari juda kam. Akademik auditoriyalar uchun mo'ljallangan xorij antologiyalaridan tashqarida, kengroq doirada muvaffaqiyat qozonish deyarli imkonsiz.

Bugungi kunda bozori chaqqon badiiy asarlarning asosiy yo'nalishlariga e'tibor qaratsangiz, ularning kamida uchdan ikki qismi o'zbek adabiyotining tarjima orqali Amerika adabiy maydoniga kirib borishi imkoniyatlari kengligiga ishora qiladi. Postmodern yo'nalishida yozilgan romanlarga kelsak, ularga bo'lgan qiziqish juda kam, o'zbek asarlari bu bozorda muvaffaqiyat qozona olish-masa kerak deb o'ylayman. Ammo barcha o'zbek yozuvchilarining memuar asarlariga bo'lgan qiziqish doimo birdek bo'lib, ular iliq kutib olinadi.

Badiiy tarjimalar, ayniqsa detektiv va fantastikaning oxirgi paytlarda mashhur bo'lishi amerikalik kitobxonlar uchun "yuqori san'at" chegaralaridan tashqaridagi xorij madaniyati haqida o'rganishning yangi va qiziq yo'llarini yaratmoqda.

Qisqa qilib aytganda, Amerika kitobxonlari o'zbek yozuvchilarining yangi, kuchli mazmunga ega bo'lgan, kitobxonni jalb qila oladigan va albatta, sifatli tarjima qilingan asarlarini o'qishdan mamnun bo'ladi.

Bu loyiha o'zbek ijodkorlari, tarjimonlar, olimlar, noshirlar va ingliz zabon mutarjimlar o'rtasida davomli hamkorlikni talab etadi. Bu hamkorlik tez orada yo'lga qo'yiladi, deb umid qilaman.

O'zbek tili va adabiyoti instituti doktoranti Zulxumor MIRZAYEVA suhbatlashdi. 2010-yil, Aprel

Mehnatsevarlik o'zbekning qon-qoniga singib ketgan xayrli fazilatlaridandir. Kattalarimiz uqtirishlaricha, mehnat – shodlik, rohat va baxt poydevori.

O'zbekning mehnatsevarligi faqat tirikchilik uchun emas, u mehnatdan jismoniy zavq oladi, ruhiy zavq oladi, estetik zavq oladi. O'zbek katta lavozimda ishlasa-da, dam olish kunlari yoniga o'g'lini olib, kichkinagina tomorqasiga ekin ekadi, gulzoridagi gullarni parvarishlaydi. Tushlik mahal esa o'zing ekkan daraxt soyasida yerga ko'rpacha solib, tomorqadan chiqqan sabzavotlardan tushlik qilib, achchiqqina ko'k choy ichib o'tirishga ne yetsin?

Xorijda yashaydigan o'zbek do'stim kuyinib aytib qoldi: «Bu yerdagilarga hayronman. Hech ishlagisi kelmaydi. Xotini bilan ham jo'rtaga ajrashib oladi-da, davlatdan ishsizlik, bola, ajrashganlik nafaqalarini olib, kafema-kafe hamburger yeb, pivo ichib yuraveradi. Shuning uchun ham hammasi semirib ketgan...»

O'zbek esa hech qachon halol mehnatdan qochmagan. O'zbek uchun o'zi ishlab topgan bir burda non o'zganing to'kin ziyofatidan afzal. U faqatgina mehnat ortidan keluvchi boylikni qadrlaydi, qora ter evaziga barpo bo'lgan turmushni chiroyli deb biladi.

Qadim zamonda bir kambag'al dehqon o'tgan ekan. Uning hovlisida bir tup toki bor ekan, shu tokdan olgan hosilni sotib qishin-yozin tirikchilik qilgan ekan. Bir kun dehqon betob bo'lib yotib qolibdi. Shunda u yolg'iz o'g'lini yoniga chaqirib bunday debdi:

MEHNATSEVARLIK



— O'g'lim, mening kunim bitganga o'xshaydi. Senga aytadigan bir gapim bor. Shuni qulog'ingga isirg'a qilib taqib ol. Gapim shuki, toklarimizning orasiga ikki xum tilla ko'milgan. Shu tillani yilda ikki marotaba — bahor ham kuzda kovlab olib, tirikchiligingga ishlat. Zora shu bilan boyib ketsang.

Otasi shu gaplarni aytibdi-da, olamdan o'tibdi. Bu payt qish ekan, bola bahorni orziqib kutibdi. Olamni gullolaga o'rab bahor ham kelibdi. Yigit ketmonni qo'lga olib, toklarning tagini belbog' bo'yi qilib kovlab chiqibdi. Biroq oltin topilmabdi. Shu orada toklar kurtak chiqarib yaproq yoza boshlabdi. Yigit tilla qidirishni vaqtincha to'xtatib, tok bilan ovora bo'lib qolibdi. Shu yili tok chunonam hosil beribdiki, yigit uni pullab tamom qila olmabdi. Kelasi yil ko'klamda ham yigit oltin qidirib bog'ning tit-pitini chiqarib yuboribdi. Yana oltin topilmabdi.

Biroq bu yil tok o'tgan yildagidan ham ko'p hosil beribdi. Yigit uni pullab juda ham boyib ketibdi. Lekin hamon yigitning xayoli otasi aytgan oltinda ekan. U shu to'g'rida xayol surib o'tirgan ekan, otasining qadr don oshnasi kelib qolibdi. Yigit unga voqeani aytgan ekan, chol xoxolab kulibdi-da, keyin:

— Bolam, otang aytgan oltinlarni olibsan-ku, — debdi.

— Otaxon, bog'dan bir misqol ham oltin topganim yo'q, — debdi yigit.

— Nega yolg'on gapirasan? Bo'lmasa, bu boyliklarni qayerdan orttirding? — debdi chol.

— Mehnat qilib topdim.

— Sen mehnatni mo'l hosil olish uchun emas, oltinni topish uchun qilding. Otang rahmatli ko'p aqli odam edi. U senga mehnatdan unadigan oltinlarni aytgan, — debdi chol.

Xalqimiz dangasalik, mehnatni sevmaslikni kambag'allikka olib boruvchi yo'l deb ta'lim beradi. Barcha yomon fazilatlar dangasalik, bekorchilik orqasidan kelib chiqishini uqtiradi.

Bir qashshoq donishmand cholning oldiga kelib:

— Ota, yeyishga nonim, kiyishga kiyimim yo'q, juda qiynaldim, nima qili-

O'ZBEKNING FE'LI

shimni bilmay qoldim. Endi qayerga borib dod desam ekan? — debdi. Chol:

— Sen kambag'al misan? — desa, u:

— Ha, bola-chaqalarim va o'zim ochman, kiyim-kechagimiz yo'q, — deb nihoyatda zorlanibdi. Chol:

— Xo'p, bo'lmasa menga o'ng qo'lingni sot, necha pul beray? — desa, haligi yigit:

— Yo'q, o'ng qo'lim o'zimga kerak, sotmayman, — debdi. Shunda chol:

— Bo'lmasa o'ng ko'zingni sot, — debdi. Yigit:

— Nega men o'ng ko'zimni sotar ekanman, u menga doimo kerak, — debdi.

Chol shu tarzda yigitning tana a'zolarini birma-bir sotgin, deb aytib chiqibdi. Yigit «yo'q» javobini qaytaravergach, chol yigitga:

— Ha, butun muchalaring sog' bo'lsa, turmushdan zorlanib nima qilasan. Sog' bo'lsang qanday ish bajar-sang, qo'lingdan keladi. Kuning o'tadi, — deb javob qaytargan ekan.

...Rahmatli bobom bekorchilarni yomon ko'rardilar. — Dunyodagi eng yomon odamlar bekorchilar, — derdilar u kishi, — Odam bekorchi bo'lgandan keyin peshona teri bilan mehnat qilayotganlarning g'iybatini qilishni boshlaydi, gap tashiydi, eng yomoni o'zi ishlamaydi-da, yana zamondan no-liydi... Sen mehnatimning samarasi bo'lmayapti dema, halol mehnatning natijasini sen albatta ko'rasan. Uning samarasi farzandlaringda bilinadi. Farzand kamoloti — sening halol mehnatdan topgan rizqingda...

Halol mehnat bilan ikki dunyo saodatiga yetishlik barchamizga nasib etsin!

Davronbek TOJALIYEV

DIGITAL WORLD

Tüm Cep Telefonu Markalarını Bulabileceğiniz Tek Adres

www.dworldshop.com

UNLOCKED

IPHONE SAMSUNG BLACKBERRY HTC

UNLOCKED

LG MOTOROLA SONY ERICSSON NOKIA

UNLOCKED

IPAD MOTOROLA BLACKBERRY SAMSUNG

Size Özel İndirimlerle Tüm Elektronik Ürünler Ve Daha Fazlası

246th Avenue Suit #600 (28 th Street) New York, NY 10001

(212) 481 32 86

KJR & Sons Inc

Address: 6900 Roustain Avenue
UNIT # 6-7 North Bergen,
New Jersey 07047

Phone: (201) 453-1220 (201) 430-8041
Fax: (201) 453-1223
Email: kjr@kjrsons.com
Web: www.kjrsons.com

KJR & SONS Inc. is a wholesale distributor of brand name health & beauty aids and general merchandise KJR & SONS serves wholesalers, grocery & c-stores, pharmacies and jobbers.

KJR has been in business since 2005, providing quick, reliable service for the past 6 years.

Visine, Pantene, Tri-State Delivery Available Upon Request! Please Contact Us For More Details.

Youngens, Axe, Email, Fax, Or Phone-In Orders To Pick Up At Our North Bergen, New Jersey Cash & Carry Location!

Tylenol, Vicks, Wyeth, Unilever, Be Sure To Join Our Mailing List For Weekly Specials And Updates!

Advil, Panasonic, BIC, Pfizer, Serving The Tri-State Area For The Past 6 Years.

Head Shoulders, Colgate, Blistex, Clear Eyes, Vendors And Suppliers Please Submit Your Offers And Deals.

ChapStick, Palmolive, Gillette, Quick, Reliable Service To Better Suit Your Needs.

Oral-B, P&G, Johnson-Johnson, Instant Krzy, Thousands Of Items In Stock!



FORTUNA

4112 18 Av, Brooklyn, NY, 11218



Amerikada o'zbek to'ylarida xizmat qilamiz:
Video tasvirga olish va montaj
Fotosuratga olish *Tel: 202-716-3683*
E-mail: photovideo@uzland.biz
Web: <http://www.uzland.biz>
UzLand Productions



AQSH VA WASHINGTON SHTATINING
A'LO SIFATLI GO'SHT VA OZIQ-OVQAT
MAHSULOTLARI



Manzilimiz: 10372 Fairfax Blvd,
Fairfax VA 22030
Telefonimiz: 703.591 29 00
Fax: 703.591 29 59
Web: www.amitymeat.com
E-mail: contact@amitymeat.com



Valentino's
Pizzeria &
Family Restaurant

**EAT IN • TAKE OUT
CATERING FOR ALL OCCASIONS**

**WE DELIVER - \$1 Delivery Charge
OPEN EVERYDAY 10:30AM TO 10:30PM**

7 North Beverwyck Rd • Lake Hiawatha, NJ 07034
CALL FOR PICK UPS

(973) 263-2022
Fax: (973)299-7306
www.ValentinosNJ.com

Prices May Change



Regional Agent: Javlon
Phone: 267-575-0000,
Email: javlonpa@atlanticexportinc.com
<http://www.atlantic.uz>
www.atlanticexportinc.com




KASHKAR
cafe
ЛАГМАН • МАНТЫ • ШАШЛЫК • САМСА

KASHKAR CAFE

1141 Brighton Beach Ave, (between Brighton 14th st. and Brighton 15th st.) Brooklyn NY 11235 USA.
Phone: 1 718-743-3832
www.kashkarcafe.com Email: info@kashkarcafe.com

O'z tovar va xizmatlaringizni arzon va foydali tarzda "Vatandosh" gazetasida reklama qiling!

VATANDOSH da reklama biznesingiz uchun yangi sahifalar ochadi!

For more information, visit Vatandosh.com/advertising, or call us at 646.397.0325. Email: info@vatandosh.com

Эффективно и недорого рекламируйте в газете «Vatandosh»!

Реклама в газете VATANDOSH - залог успеха вашего бизнеса!

We advertise your products and services in cheap and affordable rates!

VATANDOSH opens new doors of opportunity for your business!

Southern Law Group LLC

Driven by Results!

Miami



New York



Orlando



IMMIGRATION NATION

Immigration Law

- Получение политического убежища
- Легализация лиц без статуса и нелегально пересекших границу
- Воссоединение с родственниками
- Получение ПМЖ через брак с гражданином (-кой) США
- Помощь в прохождении интервью на изменение статуса
- Защита от депортаций, освобождение из иммиграционной тюрьмы
- Защита в иммиграционном суде, апелляция после отказа
- Помощь арестованным на границе
- Оформление частного приглашения для проживающих вне США
- Получение гражданства, транзитный паспорт, рабочие и бизнес-визы
- Оформление лотереи и документы для выигравших

Real Estate Law

Изменение условий ипотеки

- Снижение долга банку и модификация займа
- Рефинансирование или короткая продажа
- Процедура отчуждения собственности или банкротства.
- Споры и выселение арендаторов
- Титульное страхование при покупке недвижимости
- Представление интересов и проверка контрактов

Criminal Law

Крупные и мелкие преступления

- Нарушение испытательного срока
- Праздношатание, проституция
- Сопротивление при задержании
- Подделка, мошенничество
- Вождение в нетрезвом виде, угон машин
- Избиение при отягчающих обстоятельствах
- Нанесение побоев, разбой, похищение людей
- Сексуальное насилие, жестокое обращение с детьми
- Кражи и воровство, наркотики, убийство

Personal Injury

Травмы в быту и на производстве

- Ошибки врачей и стоматологов
- Автомобильные аварии
- Падения, травмы, повлекшие ущерб здоровью
- Несчастные случаи, в т.ч. со смертельным исходом
- Судебные иски против страховых компаний

1801 South Ocean Drive
Suite J, Hallandale, FL 33009
Office: 954-457-1220
Cell: 754-214-1001

1425 Kings Hwy, Suite 4
Brooklyn, NY 11229
Office: 347-492-7331
Cell: 347-681-4461

5728 Major Blvd, Suite 265
Orlando, FL 32819
Office: 407-802-2881
Cell: 407-501-1170

Fax: 954-456-7553. Skype: thelawclub, Web-www.thelawclub.com, www.greencardnadam.com



JARAYON

NAVOIY SAVDO QATORI NEGA BUZILDI?

Maishiy hamda elektron texnika bilan savdo qiluvchi shahobchalari bilan mashhur bo'lgan Navoiy savdo qatori shu yilning mart oyi o'rtalarida buzilib, sobiq "Malika" fabrikasiga ko'chirilganidan balki xabaringiz bor. Nafaqat Navoiy savdo qatori, balki Navoiy ko'chasi bilan kesishuvga yaqin joyda joylashgan Furqat ko'chasidagi Geologiya muzeyi, shuningdek, Botir Zokirov (sobiq Abay) ko'chasidagi biznes markaz binolari ham olib tashlangan.

Navoiy savdo qatori hamda unga yondosh binolarning buzib tashlanishi, Navoiy ko'chasidagi tramvay yo'llarining demontaj qilinishi ketidan odamlar og'zida turli mish-mishlar bolaladi. Ba'zilar sobiq savdo qatori o'rnida mintaqamizdagi eng yirik iqtisodiy va madaniy markazga aylanishi kerak bo'lgan "Tashkent City"ning bunyod etilishini aytsa, boshqalar Navoiy savdo qatori orqasidagi tekis bo'lmagan maydonlarning bir tekis qilib sathi tenglashtirilganiga ishora qilib, "bu yerda katta xiyobon paydo bo'ladi" kabi fikrlarni bildirdi. 20-aprel kuni bu yerda 1-sonli turar joy binosining qurilishi haqidagi ma'lumotnoma maydonga o'rnatilganidan so'ng bu kabi mish-mishlarga chek qo'yildi.

Ayni vaqtda savdo qatori o'rnida har biri yetti qavatli sakkizta turar joy binosi qurilmoqda. "Darakchi" gazetasi xabariga ko'ra, "mazkur turar joy binolaridan har birining alohida buyurtmachisi va pudratchisi bor". Furqat-Navoiy ko'chalari kesishgan joydan boshlanuvchi "birinchi turar joy binosining bosh buyurtmachisi "O'zkimyosanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi bo'lib, uning pudratchilari "Toshneftgazqurilish"

OAJ va "O'zneftgazqurilish invest" aksiyadorlik kompaniyalaridir. Ikkinchi turar joy binosi Davlat aksiyadorlik tijorat "Asaka banki" buyurtmasiga asosan bunyod etilmoqda. Uning qurilishi "Bunyod plast qurilish" MChJ bosh pudratchi tomonidan amalga oshirilmoqda. Uchinchi va to'rtinchi turar joylar "Ipoteka bank" aksiyadorlik tijorat ipoteka banki tomonidan buyurtma qilingan bo'lib, uning qurilishi "Temur Malik" MChJ pudrat korxonasi tomonidan amalga oshiriladi. Beshinchi bino qurilishi Navoiy tog'-metallurgiya kombinatining "Zarafshon" qurilish boshqarmasi pudrat korxonasi tomonidan amalga oshirilib, uning bosh buyurtmachisi Tashqi iqtisodiy faoliyat



Navoiy ko'chasidagi eski tarmvay yo'li olib tashlanib, yo'l kengayib qoldi.

Milliy banki hisoblanadi. Oltinchi turar joy binosi "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan buyurtma qilingan. Uning qurilish ishlari bosh pudratchi "Qurilish lyuks" MChJ tomonidan amalga oshiriladi. Navbatdagi yettinchi turar joyning qurilishiga "O'zsanoatqurilishbank" ochiq aksiyadorlik tijorat banki tomonidan buyurtma berilgan. Uni qurish "Ulkan qurilish maxsus servis" MChJ tomonidan



Navoiy ko'chasidagi yangi qurilish maydoni.

amalga oshiriladi. So'nggi, sakkizinchi turar joy binosining bosh buyurtmachisi "Aloqa bank" ochiq aksiyadorlik tijorat banki bo'lib, uning bosh pudratchisi "Binokor" mas'uliyati cheklangan jamiyatidir", deb yozadi "Darakchi" gazetasi. Gazetaning qo'shimcha qilishicha,

ning aytishicha, har bir turar joy binosi bir-biriga o'xshab ketsa ham, ammo biri-biridan ajralib turuvchi juz'iy farqlari ham bor. Xususan, ba'zi turar joy binolarida 1, 2 va 4 xonali xonadonlar aralash qurilsa, ba'zilarida 1 xonali kvartiralar umuman bo'lmaydi.

Turar joy binolarining orqa tomonida katta yer maydoni ko'kalamzorlashtirilib, qurilish ishlari bilan bir qatorda, hududni ko'ngilochar, dam olish maskaniga aylanishi uchun zarur tayyorlov ishlari olib borilmoqda. Natijada poytaxt markazida zamonaviy turar joy binolari, qulay va talablar doirasidagi maishiy savdo majmui, shu bilan birga, ko'rkam bir maydon yuzaga kelishi ko'zda tutilgan.

Reja bo'yicha, loyihalashtirilgan ishlarning asosiy qismini shu yilning noyabr-dekabr oylarigacha yakunlash ko'zda tutilgan. Qurilish boshida maydonga o'rnatilgan ulkan plakatda binolar maketi va qurilishning 1-sentabr-gacha bitishi ko'rsatilgan edi. Hozir bu plakat olib tashlangan.

Foydalanishga topshirilganidan so'ng, ushbu turar joy binolari guruhi poytaxt ko'rkiga ko'rk qo'shishiga shubha yo'q.

Muhrim A'ZAMXO'JAYEV,
Toshkent



Rejalashtirilayotgan inshoot.



Furqat va Navoiy ko'chalari kesishuvidagi qurilishi tugallanmagan binoning 17, 18, 21-apreldagi holati.

binolarning loyihasi "Toshkent Boshplanliti" tomonidan ishlab chiqilgan.

Aprel oyida boshlab yuborilgan qurilish ishlari ayni vaqtda faol davom etayapti, deb aytish mumkin. Hozircha har bir pudratchi birin-ketin binolarning poydevor qismi bilan bog'liq ishlarni yakunlamog'da. Xususan, 27-may kuni kuzatuvlarimizga qarab aytish mumkinki, ayni vaqtda beshinchi turar joy binosi quruvchilari poydevor bilan bog'liq ishlarning birinchi qismini yakunlab, karkaslarni o'rnatishni boshlab yuborishgan. Boshqa obyektlarda - ba'zilarida poydevor quyishning endi yarmiga yetib kelingan bo'lsa, boshqalarida poydevor quyish bo'yicha dastlabki ishlar boshlangan.

Qurilayotgan yetti qavatli turar joy binolarining dastlabki ikki qavatida maishiy savdo majmualari faoliyat olib boradi. Qolgan beshta qavatda esa jami 40 ta xonadan joylashadi. To'rtinchi turar joy binosining brigadirilaridan biri-



**Хурматли
ватандошлар!**

Сизга маълумки, АҚШда солиқлар масаласи жуда ҳам муҳим ва ҳар бир фуқаро даромад солиғини ўз вақтида қонунларга мувофиқ равишда тўлаши шарт.

Ватандошларимизга солиқларни тайёрлашда ёрдам бериш мақсадида Вашингтонда АҚШ қонунларига кўра даромад солиғи бўйича ўзбекистонлик мутахассислар (IRS) ишни бошлади.

Сизни қизиқтирган барча саволларга қуйидаги рақамлар орқали мурожаат қилишингиз мумкин.

Зокир Алиев.
МВА.ЕА - 703 459 82 34

E-mail: zakiraliyev@yahoo.com

АҚШ Солиқлар Бош Бошқармасининг имтиёзли лицензиясига эга солиқ мутахассиси.

Фазилат Мамурова
МРА -703 786 72 01

E-mail: fazilat84@yahoo.com
Молиявий хизматлар

f Biz bilan Facebook orqali do'stlashing: www.facebook.com/vatandosh

XALQARO TALABALAR UCHUN YANGI IMKONIYAT

AQSh Davlat Departamenti AQShga keluvchi xalqaro talabalar, tadqiqotchilar va mutaxassislar uchun mavjud ta'lim grantlari va dasturlarini bir joyga yig'ish maqsadida yangi veb-sayt tashkil etdi. J-1 vizasini oluvchi xorij fuqarolariga doir barcha masalalar haqida ma'lumotlar bazasidan iborat bo'ladigan yangi veb-sahifa <http://j1visa.state.gov> nomi ostida ish boshladi.

AQSh Davlat departamenti tarqatgan axborotga ko'ra, yangi sayt 1-iyundan boshlab to'liq ishga tushadi. Sayt Amerikada o'qish imkoniyatini beruvchi turli ta'lim dasturlari, grantlar va ularga hujjat topshirish yo'l-yo'riqlari hamda J-1 vizasini olish tartibi haqida batafsil ma'lumot beradi.

J-1 viza dasturi AQSh va xorijiy o'lkalar fuqarolari o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlash yo'lida xizmat qiluvchi almashinuv dasturlarini o'z ichiga olib, ish va o'qish maqsadida kelivchilar uchun vizalar beradi. Har yili 350 mingdan ziyod xalqaro talabalar, tadqiqotchilar, doktorlar hamda qisqa muddatli ishchilar AQShga J-1 vizasi bilan keladi.

Yangi sayt ana shunday dasturlarda ishtirok etuvchilar yoki ishtirok etishni istovchilar ishini osonlashtirish maqsadida tashkil etilgan. Masalan, siz Amerikaga universitetda o'qish uchun kelmoqchi bo'lsangiz, saytga kirib, xalqaro almashinuv dasturlariga homiylik qiluvchi universitet va tash-

kilotlar ro'yxatini topishingiz mumkin. O'z qiziqish, maqsad va yo'nalishingizga qarab, mos universitet va dasturlarini topishingiz va ularga mustaqil tarzda bog'lanib, dasturda ishtirok etishingiz mumkin.

Bu saytdan nafaqat talabalar uchun, balki AQShda amaliyot o'tamoqchi bo'lganlar, o'qituvchi sifatida kelib dars berishni istovchilar, tadqiqotchilar va maktab o'quvchilari uchun ham turli dasturlarni topish mumkin.

Agar siz AQShda J-1 vizasi bilan o'qiyotgan yoki ishlayotgan bo'lsangiz, saytdan siz ham foydalanishingiz mumkin. Masalan, AQShda turish muddatigizni cho'zdirmoqchi bo'lsangiz, yangi DS formasini olishni istasangiz yoki bir dasturdan ikkinchi dasturga o'tish niyatingiz bo'lga, bu haqda ushbu sayt sizga yordamchi bo'ladi. Shuningdek, J-1 vizasi va sizning bu viza ostidagi huquq va majburiyatlaringiz haqida ham saytda batafsil ma'lumotlar berilgan.

Saytning past tezlikdagi internetda ham yaxshi ishlashi hisobga olingan. Sahifalar dizayni tushunish uchun qulay va ulardan axborot topish osonlashtirilgan.

Umid qilamizki, bu yangi veb-sayt sizga AQShdagi mavjud ish va o'qish imkoniyatlari borasida kengroq ma'lumot berib, amaliy yordamchingiz bo'ladi.

Behzod MAMADIYEV



TA'LIM

"KELAJAK OVOZI-2011" YOZGI O'QUV OROMGOHI UCHUN ARIZALAR QABULINI BOSHLADI

"Kelajak ovozi" matbuot xizmatining xabar berishicha, an'anaviy tarzda har yili 7-21-iyul kunlari Qashqadaryo viloyatida tashkil etiladigan "Kelajak ovozi" Yozgi o'quv oromgohida ishtirok etish uchun arizalar qabuli boshlangan. Yozgi oromgoh Fond Forum va "Kelajak ovozi" Yoshlar tashabbuslari markazi hamda Britaniya kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi, BMTning aholishunoslik Jamg'armasi ishtirokida tashkil etilmoqda. Arizalar 2011-yilning 20-mayidan 10-iyunigacha qadar "Kelajak ovozi" YoTM bo'limlarida hamda kelajakovozi.uz@gmail.com elektron manzili orqali qabul qilinadi.

Har yili "Kelajak ovozi" yoshlar tashabbuslari markazining eng faol a'zolari yozgi o'quv oromgohi doirasida mamlakatimiz va xorijning yetakchi murabbiylari bilan birgalikda mashg'ulotlar o'tkazishadi. Ular bu yerda ta'lim, sport va madaniy tadbirlarda qatnashish, do'stlar orttirish, qo'shimcha bilim va ko'nikmalar olish, o'z iste'dodlarini namoyish etish imkoniga ega bo'ladi. Yozgi o'quv oromgohi loyihasini qo'llab-quvvatlayotgan yoshlar tashkilotlari safida Britaniya kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi, BMTning aholishunoslik Jamg'armasi, Yaponiyaning xalqaro hamkorlik agentligi JICA, Koreyaning xalqaro hamkorlik agentligi KOICA, UN Volunteers, BMTning UNODC giyohvand moddalar nazorati agentligi, Korean Internet Volunteers Program, DVV International, Nagoya (Yaponiya) hamda Westminster (Buyuk Britaniya) Universitetlari, Singapurning Toshkentdagi menejmentni rivojlantirish instituti va boshqa xalqaro tashkilotlar bor.

Bu yilgi yozgi o'quv oromgohida nafaqat YoTM a'zolari balki, Fond Forum va "Kelajak ovozi" YoTM faoliyatiga befarq bo'lmagan oliy o'quv yurti talabalari ham ishtirok etishlari mumkin.

Nomzodlar (18 yoshdan 25 yoshgacha) talabalik davrida faol bo'lish bilan birga, maxsus ishtirokchi anketasini to'ldirishlari va tibbiy ko'rikdan o'tishlari (№o86 forma) talab etiladi.

Anketa ma'lumotlariga ko'ra saralab olingan nomzod keyingi bosqich - suhbatda qatnashadi. Saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan ishtirokchilar "Kelajak ovozi-2011" yozgi o'quv oromgohiga yo'llanmani qo'lga kiritadi. To'ldirish uchun anketalarni www.kelajakovozi.uz saytidan topishingiz mumkin.

**PRIVATE SCHOOL
CONCORD RUSAM INC.**
LICENSED BY THE NEW YORK STATE EDUCATION DEPARTMENT

Tibbiyot sohasida tez va oson ish topish istagida bo'lganlar diqqatiga!!!

Concord Rusam, Inc. xususiy maktabi sizga AQShda eng kerakli bo'lgan tibbiyot kasblari bo'yicha ta'lim olish imkoniyatini beradi. Quyidagi qisqa muddatli o'quv kurslarini taklif etamiz:

- **Certified Nurse Aide (CNA)**
- **Phlebotomy Technician**
- **Electrocardiography Technician (ECG)**
- **Patient Care Technician (PCT) – Includes Certified Nurse Aide, Phlebotomy Technician, and Electrocardiography Technician.**
- **Medical Billing and Coding (MB&C)**
- **Home Health Aide (HHA)**
- **Upgrade of Personal Care Aide to Home Health Aide (PCA-HHA)**

Concord Rusam nazariy va amaliy bilimlar beradi. O'qish so'ngida maktab binosida imtihonlar topshiriladi.

Shuningdek, maktabimiz **hamshira (Registered Nurse) litsenziyasini olish uchun** topshiriladigan NCLEX imtihoni uchun Tayyorgarlik kursini ham tashkil etadi. Ushbu kurs leksiya, kitoblar, qo'shimcha materiallar, test savollaridan iborat CD hamda videodarslar asosida olib boriladi.

Qo'shimcha ma'lumot va ro'yxatdan o'tish uchun quyidagi raqamlarga qo'ng'iroq qilishingizni so'raymiz:

Tel: 212-619-2260 **Toll Free:** 877-787-4500 **Fax:** 212-6192263
E-Mail: info@concordrusam.com
Website: www.concordrusam.com
Address: 160 Pearl St. 3rd Fl, New York, NY 10005

"LIVING WAY" SIZNI CHORLAYDI!

BEPUL

Xristofor Kolumb Mirzo Ulug'bekning yulduzlar xaritasi orqali Amerikani kashf etdi. Biz esa Amerikaga endi kelganlar uchun "Living Way"ga tashrif buyurishlarini taklif qilamiz.

"Living Way" bolalar va kattalar uchun ingliz tilini o'rganadigan bepul maktabdir. Bu maktab asosan Markaziy Osiyodan Amerikaga kelgan insonlar uchun maxsus ochilgandir.

Mashg'ulotlarni amerikalik o'qituvchilar olib borishadi. "Living Way" da olgan bilimlaringiz Sizni nafaqat Amerika hayotiga moslashtiradi, balki o'z turmush tarzingizni to'la o'zgartirishga imkoniyat yaratadi. O'zingizga va yaqinlaringizga eng to'g'ri yo'lni ko'rsatadi!

**Murojaat uchun manzil: 2487 Coney Island Avenue, Brooklyn, NY 11223
Tel. 718-781-6030**

HAYOT SABOQLARI

Yaqinlaringizni eshita olasizmi? Bu savol sizga biroz g'alati tuyulishi mumkin. Aniqki, javobi: "Albatta eshita olaman" bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas.

Menga ham bu savolni bir qancha vaqt avval berilganda, tasdiq javobini bergan bo'lardim. Ammo... birgina qo'ng'iroq meni bu savolga boshqacha qarashga majbur qildi.

Telefon jiringlardir. Go'shakni olganimda telefon ortidagi ovoz yaqin insonimning olamdan o'tganligi xabarini berdi. Hafta oldin ko'rishgan amakimning ko'rinishi kasalga o'xshamagandi yoki biror o'limni xabarini beradigan holatda ham emasdi.

— Nimaga o'ladi? — deya oldim, xolos.

Telefon ortidagi ovoz piqilab yig'lab yubordi. Mening bu savolim xuddi uning o'limga haqqi yo'qday jarangladi. Iztirob chuqurmidi yoki hali ham gap nimada ekanligini anglab yetmadimmi, qalbm bu xabarga ishonishdan bosh tortardi.

— U o'zini o'zi osib qo'ydi, — go'shak yer sari uchdi.

Xayolimda qolgan oxirgi nuqta bu tushayotgan go'shak. O'zimga kelganimda bu xabarni yangidan eshitib yodga olishimga to'g'ri keldi. "Nimaga, nimaga axir o'zini o'ldiradi", degan savol meni tinch qo'ymasdi.

Ammo ba'zan vaziyat bizni bu o'yayollarni chetga surib, yana yashashda davom etishga majbur qiladi. Marosimlar tugab hamma uy-uyiga tarqadi. Men va amakimning ayoli o'z dardu alamimiz bilan yaqinda janoza o'qilgan uyda yolg'iz qoldik. Bu yerdagi hamma narsa amakimni eslatardi. Eng alamli xotiralar azobini o'lgan insonning

narsalari yodga soladi.

— Keling, rasm ko'raylik, — dedi yangam. Bu taklif menga g'alati tuyuldi. Axir o'zi alami kuchayib turganda rasm ko'rib uni eslash o'n barobar azobli emasmi?

— Xo'p, hozir albomlarni olib kelaman.

...Nazarimda amakimdan baxtli inson yo'q edi. Amakilarim ichida eng mehriboni, eng g'amxo'ri u edi. Ota-onam ajrashib ketganiga qaramay, meni hech qachon yolg'iz tashlab

shimni rosa yomon ko'rardi. O'sha kuni nimagadir, bor, biroz qo'shnilarnikiga chiqib kel, uyda o'tiraverib ham ezilib ketding, dedilar. Hayron bo'ldim-u, ammo qo'shnilarnikiga chiqib ketdim. Bir pasdan keyin jiyaningiz yugurib kelib, "Oyi, adam omborxonaga kirib ichkaridan qulflab oldilar. Eshikni ochmayaptilar", dedi. Biror ishi bordirda, deb o'yladim-u, ammo keyin ko'nglim behuzur bo'ldi. Yugurib keldim. Eshikni ochmadilar. Oxiri eshikni buzib kirganimda osilib turgan

— O'sha xizmat safarida biz birga edik. O'shanda u o'zini poyezdda o'ldirmoqchi bo'lgan edi. Zo'rg'a to'xtatib qolgandim.

— Nega o'shanda aytmadingiz buni? Nega hozir aytayapsiz, buning oldini olish mumkin edi-ku, balki vasava bo'lib qolgandirlar? — yonimda turgan bu kishiga borgan sari nafratim oshardi.

— O'shanda nimaga bunday qilayapsan, deganimda u og'ir kasal ekanligini aytgan edi. O'sha xizmat safariga borganda o'zini tekshirtirgan ekan, boshida o'simta borligi, uzog'i bilan 3-4 oy yashashi mumkinligini aytishgan ekan.

Boshimga gurzi bilan urishganday bo'ldi. Gandiraklab ketdim. O'shanda "Yaqinlaringni eshitishni bilasanmi?" degan savolga boshqacha qaradim. Nahotki, men ularni tinglashni, dardlariga sherik bo'lishni bilmadim? Nahotki, hayotlari xotimasini bunday mash'um o'lim bilan emas, Xudo rozi bo'ladigan alfozda kechirishlariga yordam berolmadim?

Har bir onimiz shoshilish, shaxsiy ishlarimizni bitirish yoki turli bema'ni narsalarga vaqt sarflash bilan o'tib ketmoqda. Biz hech kimning dardini tinglashga vaqt topa olmaymiz, chunki nazarimizda o'zimizniki o'zimizga yetarli. Ammo oynai jahon ortida g'am chekayotgan Gvadalupe-yu, Rayhonlar, Aliya-yu, Morena Klaralar bilan birga qo'shilib yig'lashga, ular haqida soatlab gapirishga tayyormiz.

Uchinchi ming yillikda yashayapmiz. Bizga hamma narsani o'rgatishadi: qanday ovqat pishirishni, qanday kiyinishni, qanday boy bo'lishni va yana boshqa narsalarni. Ammo hech kim bizga sevishni, yaqinlarimizga mehr ko'rsatishni, muhabbatimizni izhor qilishni o'rgatmaydi. Faqat bizga sevgi va muhabbat qiz va yigit o'rtasida bo'ladigan arzon his deb tushuntirishadi, xolos. Hech kim sizga onangizni quchib, "Onajon, menga tarbiya berganingiz uchun rahmat, sizni judayam yaxshi ko'raman", deyishni o'rgata olmaydi. Buni anglab yetish, har xil bema'ni fikrlarni ortga surib mana shularni farzandlarimizga tushuntirib anglatishni, mana shu hislar bilan ularni ulg'aytirishni nega hech kim o'rgatmaydi?

Farzandidan judo bo'lgan ona "Shuncha yil uni deb kuydim, yondim, ishladim. Hamma narsasi bo'lsin, birovdan kam bo'lmasin, deb kunni tunga uladim. Ammo uni yo'qotgan kunim eng asosiy narsani qilmaganimni tushundim. Unga bu narsalarning hech biri kerak emas ekan. Faqatgina uni quchog'imga olib, "Bolajonim, seni judayam yaxshi ko'raman", deb aytishim kerak ekan", deya yig'laydi.

Savol so'rab ona yoniga kelgan bola, "Yo'qol, jonimga tegding", degan dakki eshitadi. U kimdan o'rgansin hayotni? Oynai jahonda ko'rsatilayotgan "Terminator", yoki "Karib orollari qaroqchilari" danmi? Xo'sh, qachon bizda yaqinlarimizni eshitishga vaqt bo'ladi?

Madina ZARIF

YAQINLARIMIZNI ESHITA OLAMIZMI?

(Voqeiy hikoya)



qo'ymagandi. Ko'cha-ko'yda bir o'zim yurganimni ko'rib qolsa ham, urushgan bo'lib uyga olib borib qo'yardi. Shirinshakar uch o'g'ilning otasi edi. Buvim vafotlaridan keyin katta uyning begi bo'lib yakka o'zi oilasi bilan qoldi. Ayoli ham aqlli, farosatli, ikki hafta burun uchinchi farzandi dunyoga kelgandi.

Axir nega? Nazarimda faqat baxtsiz odamlargina o'z joniga qasd qiladi.

— Yanga, nega unday qildilar?

— Bilmadim, o'ylab o'yimga yeta olmayapman. Faqat o'sha kuni g'alati bo'lib yurdilar. Qo'shnilarnikiga chiqi-

oyoqlarini ko'rdim. Kech bo'lgan ekan.

— O'zi o'lim va shunga o'xshash mavzularda gapirmaganmidilar, oxirgi paytlarda?

— Yo'q, har doimgidek edilar.

Narigi xonadan bola yig'isi eshitildi. Kelinoyim bola yoniga chiqib ketdilar. Men esa o'z xotiralarimni titkilay boshladim. Bir hafta oldin amakim bilan ko'rishgan edik. Men ham ularda hech o'zgarish sezmagandim.

— O'zingni ehtiyot qil, oyingni aytganlarini qil, — deya xayrlashgandilar...

...Oradan ancha vaqt o'tib, bir kuni amakimning do'stalaridan birini ko'rib qoldim. Ish bilan xizmat safariga ketgan ekan, amakimning ta'ziasiga bora olmaganligini aytib uzr so'radi.

— Bilasanmi, senga amaking haqida bir narsa aytaman. Esingda bo'lsa u o'limidan bir oy avval xizmat safariga borib kelgandi.

— Ha, esimda.

RONNIE Auto Collision
SPECIALIST IN
AUTO BODY - PAINTING - COLOR MATCHING

GOODYEAR
Ersin & Muzaffer

Authorized Insurance Claims Handled

Free Estimate
24-Hour Towing

Tel. (718) 369-7496
Fax. (718) 832-7002

4001 - 2nd Avenue
Brooklyn, NY 11232

KINGS FOOD
International Food Market

1914 KINGS HIGHWAY • BROOKLYN, NY 11229
PHONE: 718-336-8100

Turkish Food

SULTAN
Gyro & Grill

2556 Coney Island Avenue
Brooklyn, NY 11223
(Btwn Ave. U & W)
(718) 998-2424

FREE Delivery

AMERIKA HAQIDA YAXSHI BILAMIZMI?

AMERIKA HUQUQI

AQShda yashash va ishlash uchun vatandoshlarimizga kerak bo'ladigan masalalar bo'yicha huquqiy maslahatlar berib borish gazetamiz oldida turgan asosiy vazifalardan. Shu maqsadda gazetamizning har bir sonida huquqiy maqolalar berib boryapmiz.

Ushbu an'ananing davomi sifatida "Amerika huquqi" nomli yangi rukn ochishga qaror qildik. Ushbu rukn ostida Amerika Qo'shma Shtatlari davlatining huquqiy asoslari va boshqaruv shakllari hamda fuqarolik va immigratsiya masalalari haqida davomli maqolalar chop etib borishni foydali deb topdik. Siz bu maqolalarda AQSh davlat tizimi haqida umumiy ma'lumot olish bilan birga, fuqarolik asoslari va bu o'lkada qonuniy yashash va ishlash uchun bilish lozim bo'lgan huquqiy masalalar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lib borasiz. Yoritilayotgan mavzular bo'yicha sizda savollar tug'ilsa yoki sizni qiziqtirgan boshqa masalalar haqida o'qishni istasangiz, ularni huquqshunos@vatandosh.com elektron manzirimiz orqali bajonidil qabul qilamiz.

Quyida yani rukn debochasi sifatida berilayotgan birinchi maqolamizda AQSh davlati huquqiy asoslari haqida ma'lumot beramiz.

AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI HUQUQIY TIZIMIDA FUQAROLARNING O'RNI

Amerika Qo'shma Shtatlarida hokimiyatni boshqarish huquqi xalqdan olinadi. Mashhur ibora shuki, hokimiyat xalqdan tashkil topgan va xalqqa xizmat qiladi. AQShda hokimiyat organlarini fuqarolar shakllantiradi va ushbu organlarning siyosatini belgilashda fuqarolar faol ishtirok etadi. Shuning uchun fuqarolar muhim jamoaviy muammolar haqida ma'lumotga ega bo'lishi va o'z shtat, okrug va shaharlari siyosiy hayotida faol ishtirok etishlari lozim. Fuqarolar erkin saylovlar yo'li bilan ovoz beradi va prezident, vitse-prezident, senatorlar va vakillik palatasi a'zolari singari muhim davlat xizmatchilarini saylaydi. Barcha fuqarolar ular tomonidan saylangan mansabdor shaxslarga o'z munosabatini bildirish, ma'lumot talab qilish va tegishli savollar yuzasidan yordam olish huquqiga ega.

Davlat boshqaruv shakli bir necha muhim prinsiplar (qadriyatlar)ga asoslanadi: erkinlik, imkoniyatlar, tenglik va odillik. Amerikaliklar bu qadriyatlarni yaxshi biladi va bu qadriyatlar fuqarolik jamiyati hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

AQSh davlati har bir fuqaroning huquqlarini himoya qiladi. Bu davlat kelib chiqishi turli bo'lgan hamda turli madaniyat va dinga ega fuqarolardan tashkil topgan. Davlat hokimiyati organlari va qonunlar shunday quril-

ganki, turli kelib chiqishga ega va turli madaniyat va diniy qadriyatlarga ergashuvchi odamlar bir xil huquqlarga ega. Hech kim ko'pchilik fikri va munosabatidan farqli bo'lgan shaxsiy fikri yoki munosabati uchun qiynoqlarga solinishi yoki javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

XALQDAN TASHKIL TOPGAN VA XALQQA XIZMAT QILADIGAN XALQ HOKIMIYATI - DEMOKRATIYA NIMA?

"Demokratiya" so'zi xalq hokimiyati degan ma'noni bildiradi. Turli davlatlarda demokratiya turli ko'rinishlarga ega. AQShdagi demokratiya "vakillik demokratiyasi" deyiladi. Bu esa xalq o'z nuqtai nazar va maqsadlarini aks ettirgan mansabdor shaxslarni hokimiyat organlariga saylashini anglatadi.

"AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI" NOMLI DAVLAT QANDAY BOSHLANGAN?

Bo'lajak Amerika Qo'shma Shtatlari hududiga kelgan ilk koloniyachilar va kelgindilarning ko'pchiligi o'z davlatlarida nohaq munosabatda bo'lingan, ayniqsa diniy tazviqlarga uchragan qochqar edi. Ular erkinlikka va yangi imkoniyatlarga intilishgan. Hozirgi kunda ham ko'plab odamlar aynan shu sabablar bilan AQShga keladi.

Alohida va mustaqil davlat bo'lishidan oldin Amerika Qo'shma Shtatlari hududi Buyuk Britaniya

boshqaruvdagi 13 ta koloniyadan iborat edi. Koloniyalarda istiqomat qiluvchilar qonunlarni qabul qilish va boshqaruv organlariga saylovlarda qatnashish huquqidan mahrum edi. Ular, ayniqsa, vakolatsiz soliq majburiyatlariga qarshi edi. Odamlar soliq to'lashga majbur, ammo jamiyatni boshqarish usullariga ta'sir o'tkazish huquqiga ega emas edi.

1776-yilga kelib ko'pchilik bunday tuzim adolatsiz ekanligini va o'z mamlakatlarini o'zlari boshqarishi kerak ekanligini anglab yetdi. Shu yili koloniyalar vakillari "Mustaqillik Deklaratsiyasi"ni qabul qildi. Bu muhim hujjatda koloniyalar erkin va mustaqil hamda Buyuk Britaniyaga kamroq bo'g'liq ekanligi e'lon qilingan edi. "Mustaqillik Deklaratsiyasi" Tomas Jefferson tomonidan yozilgan. Keyinchalik esa Tomas Jefferson Amerika Qo'shma Shtatlarining uchinchi prezidenti bo'ldi.

SIZ NIMALAR QILISHINGIZ MUMKIN?

Agar siz AQShda doimiy yashash huquqiga ega bo'lsangiz, fuqarolarga berilgan ko'plab huquq va erkinliklarga ega hisoblanasiz. Ayni paytda bir qator majburiyatlaringiz ham bor. Muhim majburiyatlardan biri bu o'z (tuman) shahar jamoaviy hayotida ishtirok etish. Shuningdek, amerikacha hayot tarzi, bu davlat tarixi va davlat qurilishi haqida bilishingiz lozim. Turli kurslarda tahsil olib yoki mahalliy matbuotni o'qib bunday ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

DASTLABKI O'N UCH KOLONIYA

AQShdagi ilk o'n uch koloniyaga quyidagi tartibda asos solingan edi:

Virjiniya, Massachusets, Merilend, Konnektikat, Rod-Aylend, Delaver, Nyu-Hempshir, Shimoliy Karolina, Janubiy Karolina, Nyu-Jersi, Pensilvaniya va Jorjiya.

"Mustaqillik Deklaratsiyasi" 1776-yil 4-iyulda imzolangan. Shuning uchun ham har yili 4-iyul Mustaqillik Kuni - AQSh davlatining tug'ilgan kuni sifatida nishonlanadi.

AQSh o'z ozodligi va mustaqilligi uchun Buyuk Britaniyaga qarshi kurash olib bordi. Amerika qurolli kuchlarini urush davomida general Jorj Vashington boshqardi. Jorj Vashington "Asochi Otalar"ning biri sifatida mashhur. Keyinchalik Jorj Vashington Amerika Qo'shma Shtatlarining birinchi prezidenti bo'ldi.

Koloniyalar urushda g'alaba qozongach, ular shtatlarga aylandi. Har bir shtat o'z boshqaruviga ega edi. Ushbu shtatlar aholisi shtatlarni yagona davlat ostida birlashtirib, yangi boshqaruv shaklini yaratishni xohlashdi. Bugungi kunda bunday boshqaruv federal boshqaruv deyiladi. Amerika Qo'shma Shtatlari 50 shtatdan, Kolumbiya federal okrugi (federal hokimiyat organlari joylashgan alohida hudud) va Guam, Sharqiy Samoa va Virjin orollari hamda Shimoliy Marian orollari va Puerto-Rikodan tashkil topgan.

Kelgusi sonda: Amerikada hokimiyat qanday ishlaydi?

Dilorom ABDULLAYEVA tayyorladi.

Uz Painting Co

Furqat
917-991-0228

Alex
718-354-5000

UzPaintingCo@gmail.com



Immigration Attorney

2610 E. 18th st, Suite 5. Brooklyn. NY. 11235
Phone: 718.303.8999



www.clickminimus.com
graphic design services...



posters **logos** invitations cover art
business cards brochures advertisements
Custom Design for Promotional Products & Corporate Gifts

TAOMNOMA

Bu pirog boshqa bir retsept asosida paydo bo'lgan. Judayam to'yimli bo'lgani uchun somsa o'rnida ham iste'mol qil-sangiz bo'ladi. Original retseptdan kelib chiqib nomini "Shveysar pirogi" deb ataymiz.

Pirogimiz uchun ke-rakli masalliq:

Xamirga: 1 kosa iliq suv yoki sut, 1 kichik qoshiqda xamirturush, 180 gr. margarin, 1 choy qoshiq tuz, 1 chimdim shakar, 5-6 stakan un.

Ichiga solinadigan masalliq uchun: yarim kg go'sht (istaganingiz, qiyma, to'g'rama go'sht yoki tovuq; suratda men tovuq ishlatganman), ta'nga ko'ra istalgan sabzavot (pomidor, bulg'or qalam-piri, piyoz, kartoshka), tuz, zira, murch, 50 gr. pishloq.


Xamirni tayyorlash uchun avval alohida idish-gda iliq suvda xamir-turush eritib olinadi. Kattaroq idishga unning hammasini solib, unga tuz va chimdim shakar

qo'shib aralashtiladi va un o'rtasi ochilib xamir-turush eritilgan suv quyiladi. Margarinni ham eritib masalliqqa qo'shib qo'lga yopishmaydigan xamir qoriladi. Masalliq xamir holatiga kelguncha ularni sanchqida aralash-tirganingiz qulayroq. Suyuqliklar unga singib ketgach, ularni qo'lda qorishni boshlash kerak. Xamir yaxshilab mush-tlangach, uni ko'pishi uchun issiqroq joyga us-tini yopib olib qo'ying.

35-40 minutlarda ko'pgan xamirni olib uni ovalroq, cho'zinchoq shaklda yoyiladi.



Xamirni ikki tomoni bir xil o'lchamlarda kesib chiqiladi.



Qiyma va ustidan qirg'ichdan o'tkazilgan pishloqni qo'yiladi.



Kesilgan ikki tomondagi bo'lakchalar bir o'ng, bir chap tomondan yopib boriladi.



So'nggi uchlarini yaxshilab tugish kerak.



Ustiga tuxum surtib, 350°F da qizib turgan

SHVEYSAR PIROGI

duxovkaga 30-35 daqiqa-ga qo'yiladi.



Pirogimiz tayyor. Endi ehtiyotlab kesib, idishga solib choy bilan tanavvul qiling. Yoqimli ishtaha!



Lobarxon USMONOVA tayyorladi.

Alaverdi
УЗБЕКСКАЯ КУХНЯ

Самые лучшие шашлыки в Филадельфии!
Лепешки, выпеченные в тандыре

Прекрасное место для проведения юбилеев, свадеб, дней рождения, бармиц, батмиц и др.

СССР - СПИРТНОЙ С СОБОЙ РАЗРЕШАЕТСЯ

Владелец ресторана Амри, искусный повар, приглашает вас в свой ресторан

267-902-1285
1916 Welsh Road, Philadelphia, PA 19115
(Plaza Welsh & Old Bustleton)

VISA
MasterCard

MOBILIA
FURNITURE & CARPET

3144 Atlantic Ave Brooklyn NY 11208
Tel.: 7182352652

Mobilia Furniture and Carpet with its convenient location in Brooklyn, New York is a furniture shoppers dream with over 150,000 square feet of furniture to choose from. It suits the needs of even the pickiest shopper. We carry almost every furniture brand name and other unique exclusive imports such Form Italia Gucci, Benetti's Italia and Arredo Classic. Our wide range of selection includes antique, traditional to modern and even custom made furniture. We are open 7 days a week and we welcome you to visit our showroom.

Present this coupon and get an extra
10% discount!!!

Only The Best Ingredients For Your Taste

Locally Owned Since 1968

Tabor
Pizzeria & Restaurant

973-540-0898
FAX: 973-540-0822

We Deliver • We Cater
Minimum \$10 / \$1.75 Delivery Fee
Morris Plains • Parsippany • Denville • Mt. Tabor

976 Tabor Road (Rt. 53) • Morris Plains
Open Daily 10:30a.m. - 10:00p.m.

Bir kishi tuya minib, safarga chiqibdi. Sahroda karvonlar olov yoqib o'tirganini ko'rib qolibdi. Bu kishi borib yetguncha ular jo'nab ketishibdi. Shu payt qattiq shamol turib, olovni yallig'lantiribdi. Qurib yotgan xas-xashakka o't ketibdi. Haligi kishi noxush ovozni eshitibdi. Qarasa, bir ilon olov ichida to'lg'anib:

— Qutqaringlar, qutqaringlar! — debdi. Boyagi kishi darrov uzun tayoqqa to'rva osib ilon tomonga tutibdi. Ilon darrov to'rva tushibdi. U kishi to'rva dan ilonni chiqarib, yo'lida davom etmoqchi ekan, ilon unga:

— Hoy odam, endi seni, tuyangni chaqib, sizlarni ha-

lok qilishim kerak, — debdi.

— Nima uchun? Yaxshilikka yomonlik bilan javob

YAXSHILIKKA YOMONLIK (O'zbek xalq ertagi)



berasanmi? — debdi kishi ajablanib.

— Ha! — debdi zaharli ilon.

Shunda ularning oldidan tulki o'tib ketayotib, bu mojaroning sababini so'rabdi. U kishi bor voqeani aytib beribdi. Shunda tulki:

— Men bunga ishonmayman. Shunday katta ilon shu kichkina to'rva qanday sig'sin? — debdi. Ilon bo'lsa:

— Ishonmasang yana to'rva tushay, ko'rgin! — debdi.

— Tush, — debdi tulki.

Ilon to'rva kiribdi. Tulki ul kishiga qarab:

— Ey odam, dushman to'rva tushdi, vaqtni o'tkazma! — debdi.


Shundan keyin u kishi to'rva og'zini bog'lab, yerga zarb bilan uribdi. Ilon halok bo'libdi.

BOLAJONLAR SAHIFASI



© D.Tojaliyev

RASMLARDAGI 10 TA FARQNI TOPING



1. Bir otasi, bir onasi, Necha yuz ming bolasi.
2. Zar gilam, zar-zar gilam, Ko'taray desam, og'ir gilam.
3. Uzun-uzun iz kelar, Uzun bo'lyi qiz kelar, Qoshginasi qaltirab, Ko'zginasi yaltirab.
4. Otasi egri-bugri, Onasi silliq juvon,

TOPISHMOQLAR

- O'g'li qo'shiqchi, Qizi o'yinchi.
5. Qozonda emas, qaynaydi, Qishin-yozin tinmaydi.
 6. Ko'zga ko'rinmas, Qo'lga tutilmas.
 7. Oyog'i yo'q, qochadi, Qanoti yo'q, uchadi.
 8. Uzun-uzun iz ketdi, Uzun bo'lyi qiz ketdi. Toqqa borib taq etdi, Sirg'alari yarq etdi.

HADISLARNI YOD OLAMIZ

MO'MINLAR AKAKADIRLAR

Rasululloh (s.a.v.): "Har bir mo'min o'z birodarining ko'zgusi, har bir mo'min ikkinchi mo'minning birodari - akasi yo ukasidir, uni zoye bo'lishdan saqlaydi va uni muhofaza qilib yuradi", — dedilar".

JAHLINGIZ CHIQA, JIM TURING

Rasululloh (s.a.v.): "Kishilarga islomni o'rgatinglar, ularga qiyin emas, yengil yo'lni ko'rsatinglar, qachon jahlingiz chiqsa, jim turishga o'rganing", — dedilar".

KULISH HAM EVI BILAN

"Rasululloh (s.a.v.): "To'vush chiqarib kulishni kam qil!

Chunki ko'p kulish dilni vayron qiladi", — dedilar".

SALOMIMIZ - MUHABBATIMIZ

"Rasululloh (s.a.v.): "Mening nafsim qo'lida bo'lgan zot nomi bilan qasamyod qilaman, sizlar musulmoni komil bo'lmaguningizcha jannatga kira olmaysiz. Musulmoni komil bo'lishingiz uchun bir-birlaringizga muhabbat qo'ymog'ingiz shart. O'rtalaringizda muhabbat paydo bo'lishi uchun salomni oshkora beringiz va bir-biringizga jahil qilishdan saqlaningiz, chunki jahil tarashlaguvchidir, ya'ni u sochni tarashlamaydi, balki dinni tarashlaydi", dedilar".

(Buxoriy bobomizning "Al-adab al-mufrad" kitoblaridan.)

HOTAMI TOYI HIKOYATI

Hotami Toyidan: «O'zingizdan ko'ra saxiyroq biror odamni ko'rgan yoki eshitganmisiz?» — deb so'rabdilar. Hotami Toyi bunday odamni ko'rganligini so'zlab berdi. Bir kuni u arab amirlarini chaqirib ziyofat qilibdi. Ziyofat uchun qirq tuya so'ydiribdi. Bir zarurat bilan sahroga chiqishiga to'g'ri kelibdi. U yerda cho'p-cho'mak terib dastaloyotgan o'tinchini ko'ribdi. U

o'tinchidan Hotamning uyiga nima sababdan bormaganligini so'rabdi va hozir bir talay odamning ziyofat dasturxonini atrofida o'ltirganini so'zlabdi. O'tinchi javob beribdi:

— O'z mehnatidan non yegan kishi Hotam minnatidan ozod yoz-qishi.

Hotam ana shu o'tinchini o'zidan ko'ra saxovatliroq deb bilibdi.

O'tgan sondagi topishmoqlar javoblari: 1. Elektr toki. 2. Lampochka. 3. Xolodilnik. 4. Televizor. 5. Magnitofon. 6. Samolot. 7. Ekskavator. 8. Lift. 9. Ruchka. 10. Temir yo'l, poyezd

POYGACHILARDAN KIM QAYSI O'RINNI EGALLAGANINI TOPING.

DAM OLISH SAHIFASI

DONISHQISHLOQ LATIFALARI

(Davomi. Boshi avvalgi sonlarda.)

MATMUSA VA O'G'RILAR

Savdo qilib Matmusa
Qaytar ekan yo'liga
Tushib qoldi shaharlik
O'g'rilarning qo'liga.

Yechintirdilar avval,
So'ng do'pposlab urdilar.
O'chsin deya ovozi
Karnay chalib turdilar.

Shu-shu, ko'p yil Matmusa
Bu shaharga qaytmadi.
Ichga yutdi alamin,
Hech kimsaga aytmadi.

Aytsa nima, el faqat
Kulgi qilar ermaklab...
Qariganda nihoyat
Nabirasin yetaklab —

Matmusa yana o'sha
Shahar sari yo'l oldi.
Bu safar katta to'yinging
Ustidan chiqib qoldi.

G'at-g'at karnay, nog'ora
Takatumni urardi.
Matmusadan nabira
Bu nima, deb so'rardi.

*Bobo aytar: bu ishni
Mendan so'rma, bolajon,
Bir sho'rlikni, hoynahoy,
Qilmoqdalar chalajon...*

*Do'stlar kulmang, bu hikmat
Matmusadan qariroq,
Nog'orayu karnaydan
Yuring doim nariroq.*

MATMUSANING AMERIKA OCHISHI

*Gazeta o'qib yotib
Matmusa o'y o'yladi.
Elni yig'ib ertalab
Shunday bir nutq so'yladi.*

*Donolar! Sizga aytay
O'ylagan bir xayolim.
Uni aytishdan avval
Bordir bitta savolim.*

*Ayting, Amerikaga
Kim dastlab qo'ygan qadam?
Kolumbmi? Yo'q! Xitoylar —
Besh ming yilcha muqaddam.*

*Ular borgan kunchiqar,
Ya'ni bizning tomondan.
So'ng bu qit'ani ochgan
Kolumb narigi yondan.*

*Endi men sizga aytsam
Maqsadu muddaoni:*

*Bizning zamon nomchiqar
Ish qilmoqning zamoni.*

*Kiroyi dong taratsak
Dunyoga tarataylik.
Amerika ochmoqqa
Yangi yo'l yarataylik.*

*Kirishsak Xitoyni ham
Kolumbni ham yiqamiz.
Shu joydan yer kavlasak
Nyu-Yorkdan chiqamiz.*

*Lekin bizlar qaziymiz
Qishloqning etagidan.
Shunda teshib chiqamiz
Naq Oq uyinging tagidan.*

*Jahonni lol qoldirib
Shuhrat olib qaytamiz.
Prezidentni shartta
Qopga solib qaytamiz.*

*Jahonshumul inqilob
Bundan oson hal bo'lmas.
Yer yuzida shundan so'ng
Boyu kambag'al bo'lmas.*

*Matmusaga qarsaklar
Ostida to'n yopildi.
Ammo — lekin ba'zi bir
«Mujmal»lar ham topildi.*

*Kimdir dedi: — Bu ish zo'r,
Menda faqat bir xayol:*

*Yer darz ketsa, ikkiga
Bo'linishi ehtimol.*

*Birov dedi: — Biz agar
Yer sharin teshib qo'ysak,
G'o'rillab shamol yursa
Bo'lmasmikin yelvizak?*

*Va lekin Matmusani
Yoqlab ketdi ko'pchilik.
Vahima qilganlarni
Boplab ketdi ko'pchilik.*

*Donishqishloq shu kundan
Boshqa ishni tashladi.
Matmusa aytgan joydan
Xandaq kavlay boshladi.*

*Rosa terga tushdilar,
Kun tobida, yer zarang.
Ish bitay degan chog'da
Suv chiqib qoldi, qarang.*

*Ishga tushdi paqirlar,
Bir zum orom bo'lmadi.
Kechgacha suv tortdilar,
U hech tamom bo'lmadi.*

*Tirishdilar kun bo'yi,
Ertalab tirishdilar.
Bo'lmagach, boshqa yerni
Kavlashga kirishdilar.*

*Donish ahli chayir xalq,
Donish ahli ko'p shovvoz.*

*Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston Xalq shoiri*

*Yer qazib, suv chiqarib
O'tdi ko'p qish va ko'p yoz.*

*Bu mehnatdan ko'mildi
Yarim qishloq tuproqqa.
Qolgan yarmi aylandi
Qurbaqazor botqoqqa.*

*Ko'p vaqtgi, Donishqishloq
Mingquduq deb atalar.
El ichida Matmusa
Mirquruq deb atalar.*

*Lekin u yo'ldan qaytmas,
Der, bu yo'l haq yo'lidir.
Xalq uni tanlagan, bas,
Demak, u xalq yo'lidir.*

*Simiramiz suv kelsa,
Tosh kelsa kemiramiz,
Ochamiz Amerika,
So'ng uni yemiramiz.*

*Yaqinda u qishloqdan
Keldi yaxshi bir xabar.
Pudratga o'tganmishlar
U yerda ham odamlar.*

*Borib ko'rdim, shiddat zo'r,
Umid katta, ish katta.
G'ayrat qilgan bir joydan
Teshib chiqar albatta.*

(Davomi kelgusi sonda.)

AIRPORT SERVICES IN NEW YORK



TO'HKENTGA AVIACHIPTALAR!

Aeroportda ku'tib olib, NYC aeroportidan 300 milgacha masofa b'ulgan bo'sha shtatlariga olib borib q'yiish e'ki olib keli'sh.

AIRLINE TICKETS TO TASHKENT!

Meet you/your guests at the JFK, LGA and Newark Airports and give ride to/from other states up to 300 ml from NYC Airports.

Asqar
Leo Avia Express

718-354-5000, 718-570-7007
Email: flytotas@gmail.com

BRIGHTON FABRICS




*Sumka, chemodanlar bilan
1988-yildan bezi
Siz bilan!*

Murojaat uchun manzil:
301, Brighton Beach Ave. Brooklyn, New York
Tel. 718.769.1479

POYTAXTLAR SKANVORDI

Albaniya	O'zbekiston	Turkmaniston	Shveysariya	Oq-qora Kiri-bati	...rmas, shahar, Checheniston	Shahar, Turkiya
Uy hayvoni (tojik)	Daryo, Vyetnam	Mineral, tosh	Temir			
...-Grande, daryo	Tulpor	Yaponiya	Yaman XDR			
Mitti davlat, Yevropa	...Kapur	Avstriya				
Xitoy	Maugli do'sti Italiya	Filippin	Vanuatu	...taliya (shahar)	...ta	
...gara, shar-shara	YaAR	Fransiya	Moga-disho	Qohira		
Dominikana	Maldiv orollari	Vyentyan				
...ar (xalq)	...moq	...anda Angola poytaxti				
Birovz-dal emas	Peru	Hindlar kiyimi	Nom			Mada-gaskar
Togo		Bah-rayn				Il



«O'ZBEKISTON» KROSSVORDI

ENIGA: 1. Erkin Vohidovning mashhur qasidasi. 5. "O'zbekiston Qahramoni" unvonini olgan mashhur jurnalist, tanqidchi. 10. Vatanimizning "Oltin vodiy"si. 15. Katta buvi, momo. 16. Pokiza, sarishta. 17. Boshqa kishi. 18. Mashhur kishilarning toshdan yasalgan katta tasviri. 19. Hamza Hakimzoda Niyoziyning taxalluslaridan biri. 20. Mashhur aktor - ... Hidoyatov. 21. Bir so'zni ifodalovchi birikmalar. 23. "Doktor Faustus" romani muallifi, jahon adabiyotining mashhur namoyandasi. 25. Mutasavvuf, "Yassaviya" tariqatining asoschisining ismi. 26. Qozonga birinchi bo'lib tushadigan narsa. 27. Ma'lum muddatga foydalalanish. 29. Sa'diy Sheroziy asari. 30. Qizil rang. 33. Amir Temur haykalini yaratgan mashhur haykaltarosh. 34. G'arbda Avitsenna nomi bilan shuhrat qozongan alloma. 36. Vatanimiz poytaxti. 39. Kerak. 40. Tinchlik elchisi bo'lgan qush. 42. Mashhur tarixchi Yevgeniy Berezikovning o'zbekcha taxallusi. 45. ...-harakat. 46. Qozog'istondagi daryo. 47. Birovga og'irligi tushmoq. 49. Sotiladigan mol. 51. Rossiyada hukmronlik qilgan sulolalardan biri. 53. Mazmun. 54. Yengil shabada. 55. Estrada

guruhlaridan biri. 56. Kichik daryo. 58. Nur ...dandir. 60. Kichik suv yo'li. 62. Peshonaga yozilgan umr, taqdir. 65. Koreyscha familiya. 66. Ibn Sinoning mashhur asari - "... qonunlari". 68. Jannatdagi buloq. 69. Otlq askar. 70. Uyda o'stiriladigan gulardan biri. 73. Suvarak. 74. Shohmot donalaridan biri. 75. Sayqali ruyi zamin. 78. Adolat. 82. Asrimiz boshlarida mustaqillik uchun kurashgan jaddilardan biri. 83. Yaponiya tarkibidagi orol. 85. Inglizcha erkaklar ismi. 86. Hudoyberdi To'xtaboyevning "Qasoskorning oltin boshi" asaridagi millat qahramonlaridan biri. 87. Ozoda, sarishta. 88. Ayg'oqchi. 89. Islom huquqshunosligi fanining bilimdoni, alloma, "Hidoya" asari muallifi.

BO'YIGA: 1. Jannatmakon diyorumiz. 2. Rizq-ro'z; fayz. 3. Kuba davlati poytaxti. 4. Mumtoz o'zbek shoirlaridan biri, mutasavvuf. 5. Amir Temur tug'ilgan shahar. 6. Birinchi o'zbek generali. 7. Qurshov, orada qolib ketish. 8. Dardli kishilarga ovunchoq bo'lish. 9. O'zbekiston Qahramoni, mashhur shoir, bir qancha kitoblar muallifi. 10. Alisher Navoiyning forsdiy taxallusi. 11. Yozuvchi. 12. Tuman, nohiya. 13. Badiiy asardagi qahramonlar.

14. Tarixda vatanimiz hududidida hukm yuritgan sulolalardan biri. 19. Raqam (rus). 22. Ho'jalik rahbari. 24. Sobiq "Paxtakor"chilardan biri. 28. Mashhur hind aktrisasi. 31. Birinchi o'zbek romannavisining ismi. 32. Muqaddas kitoblardan biri. 35. Baliq uvildirig'i. 37. Hotami ... 38. Uy-ro'zg'or buyumi. 41. Hargiz. 43. So'rov. 44. Xususiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish idorasi. 48. Lahza. 49. O'zbekistonga qo'shni davlat. 50. Bobur, Cho'lponlar vatani. 51. Davlatlarning siyosiy tuzilishi shakllaridan biri. 52. Oliy hakam. 57. G'am, qayg'u. 58. Pufak. 59. Tarixda O'rta Osiyodagi oliy unvon. 60. Mast qiluvchi ichimlik. 61. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar. 62. Qo'riqchi. 63. Sadridin Ayniy tug'ilgan qishloq. 64. "Ravshan" dostonidagi polvon-kallardan biri. 65. Qatag'onga uchragan qo'qonlik shoir. 67. "Al-adab al-mufrad", "Tarixi Buxoro", "Tarixus-siqot vaz-zuafo min ruvotil hadis" asarlari muallifi. 71. Yevropada yashovchi xalqlardan biri. 72. ... Dantes (A. Dyuma). 76. Mashhur ingliz hikoyanavisi - Somerset ... 77. Simvol. 79. G'alla. 80. Xurofot. 81. Fransiyalik mashhur fiziklar sulolasi. 84. O'ta ochko'z.

Kross.ziyouz.com

SUPKUS

Bo'yi va eni bo'ylab 1 dan 9 gacha bo'lgan sonlar, shuningdek 9 ta 9 xonali ajratilgan bloklarda ham 1 dan 9 gacha bo'lgan raqamlar takrorlanmasligi shart.

	1		4				7	
	6	5		1				
					6	5		9
6			5	9				8
1		2				3		4
8				2	1			5
5		7	6					
				3		6		
	2				5		4	

			5	3			9	8
			2				6	
1	9				4			
7		5						
	3	1				7	5	
						6		2
			4				8	1
	1				9			
3	7			1	6			

O'tgan sonda berilgan krossvorning javoblari:

ENIGA: 5. Azamat. 6. Skelet. 10. Otit. 11. Ajnabiy. 12. Audi. 17. Asil. 18. Bavariya. 19. Abay. 20. Ladoga. 21. Biotok. 25. Kadi. 26. Flanel. 27. Iyul. 28. Iloj. 30. Negroid. 33. Eshak. 34. Kibriyo. 35. Ararat.

BO'YIGA: 1. Azot. 2. Ganj. 3. Ukki. 4. Baqa. 7. Ateist. 8. Baykal. 9. Adovat. 13. Allakim. 14. Zangila. 15. Bilimli. 16. Kaloriya. 22. Fabula. 23. Anqara. 24. Olapar. 29. Joiz. 31. Yechim. 32. Ikra. 33. Egar.

TABASSUM

SOQOL VA SOCH

Xo'ja Nasriddin qariy boshlabdi. Sochlari asta-sekin oqarar ekan, soqolida bir donayam oq yo'qmish. Sartaroshga borib soch-soqolini to'g'rilatmoqchi bo'libdi. Sochini oldirib bo'lganlardan biri:

— Xo'jam, sochingiz anchagina oqaribdi, lekin soqolingizda bir dona ham oq yo'q, — debdi.

— Sochim soqolimdan yigirma yosh katta, shuning uchun, — debdi Xo'ja.

QARZ

Mahalladagi baqqol Xo'ja Nasriddinni har ko'rganida yo'lidan chiqib xijolat qilar emish.

Yana bir kuni baqqol Xo'janing yo'lini kesib chiqqan edi, Xo'ja Nasriddin asabiy-lashdi:

— Menga qara, sendan qancha qarzim bor? — deb so'radi.

Baqqol:

— 50 tanga.

Xo'ja Nasriddin baqqolning yoqasidan olib dedi:

— Ertaga kelsang 20 tan-

gasini beraman, ikki kundan so'ng 25 tangasini beraman. Qirq besh tangasidan qutuldimmi? Keyinchalik besh tangasini beraman. Ey, sen qanaqa yuzsiz odamsan? Besh tanga uchun shunchalik ham bo'ladimi? Besh tanga meni do'st-dushman orasida uyaltirishga arziydimi?...

— Voqea aslida bunday bo'lgandi, meni ham tinglang, — dedi. Shunday tushuntirdiki, to'g'ri demasdan iloji yo'qmish.

— Sen ham haqlisan, — dedi Afandi. Xotini bu hukmni eshitib:

— Ey Afandi, bu qanaqasi? Ikkalasi ham bab-barobar haq bo'lishi mumkinmi? Yo u haqli

odam yoniga kelib:

— Afandi janoblari, o'tloqda o'tlayotgan, bir sigir bir sigirni suzib o'ldirib qo'ysa nima qilish kerak? — deb so'radi.

Afandi esa:

— Hech nima qilish kerak emas, — dedi. — Tilsiz bir hayvonga qon da'vosi ochilmaydiku.

Afandining bu so'zlari u

Xo'ja yaqinroq kelgach:

— Xo'jam, oyoqlarimizni yo'qotib qo'ydik, hammasi bir-biriga aralashib ketdi. Bizga yo'l ko'rsating, oyoqlarimizni topib olaylik, — dedilar.

Xo'ja bu ishga hazil aralashganini sezib kulimsiradi. "Men hozir oyoqlaringizni topib beraman", dedi. Atrofiga qaradi, ko'ziga ilingan bir daraxt shoxini olib suvga tiqdi. Suv ichidagi oyoqlarga novda bilan urdi. Kaltak yegan bolalar sakrashib, hovuzda yugura boshlashdi.

Afandi kulib dedi:

— Ko'rdingizmi bolalar, oyoqlaringizni qanchalik tez topib berdim.

DUNYONING MUVOZANATI BUZILADI

Bir kuni Nasriddin Xo'jaga:

— Har tong odamlarning bir qanchasi u tomonga, bir qanchasi bu tarafga ketadi, sababi nima? — deb so'radilar.

Nasriddin Xo'ja:

— Agar hammasi bir tomonga yo'nalganda dunyoning muvozanati buziladi va dunyo to'ntarilib ketardi, — deb javob berdi.

Muhammadamin TO'XLIYEV tayyorladi.

NASRIDDIN AFANDI LATIFALARI

O'RDAK SHO'RVA

Xo'ja Nasriddinning uyida yegani hech narsa yo'q emish. Quruq non olib ko'lga boribdi. Ko'lda o'rdaklar suzib yurgan emish. Xo'ja ham nonni suvga botirib yeya boshlabdi. Xo'jani ko'rganlardan biri:

— Xo'jam nima qilayapsan? — deb so'radi. Xo'ja xafa holda javob berdi:

— O'rdak sho'rva ichayapman.

SEN HAM HAQLISAN

Bir kuni Xo'janing oldiga bir-birini yoqalab, ikki kishi keldi. Dastlab birinchisi yonib-kuyib da'vosini aytdi. Xo'ja diqqat bilan tinglagach:

— Haqlisan, — dedi. Shunda ikkinchisi:



yoki bu, — deyishi bilan Xo'ja: — Sen ham haqlisan, — dedi.

QORA JILDLI KITOBNI KELITIRING

Afandi qozi lavozimida ishlayotgan kunlarning birida bir

kishini barcha qo'rquvlarini tarqatib yubordi:

— Sog' bo'ling qozi janoblari, bizning sigir sizning sigirni narigi dunyoga jo'natib yuboribdi, — deyishi bilan Xo'ja qoshlarini chimirib:

— Unday bo'lsa to'xta, masala jiddiylashdi; menga qora jildli kitobni olib keling, — dedi.

YO'QOLIB QOLGAN OYOQLAR

Qirg'oqda o'ynayotgan bolalar Xo'ja Nasriddin kelayotganini ko'rib:

— Kelinglar Xo'jaga bir hazil qilamiz, — deyishdi va hammalari birgalikda oyoqlarini suvga tiqib, "Shu sening oyog'ing, bu mening oyog'im" deya bir o'yin qildilar.

VATANDIN YAXSHI YOR BO'LMAS!

VATANDOSH

to your home!

DELIVER TO:

Name: _____
Address: _____
City: _____
State: _____ Zip: _____
Phone: _____
E-mail: _____

You can contact me regarding events, promotions, sponsorship, opportunities.

BILLING: (if different from delivery address)

Name: _____
Address: _____
City: _____
State: _____ Zip: _____
Phone: _____
E-mail: _____

You can contact me regarding events, promotions, sponsorship, opportunities.

SELECT PAYMENT METHOD

Check or money order enclosed (payable to VATANDOSH) in the amount \$48 (do not mail cash) for one year subscription*

Charge me \$48 with my credit card for a one-year subscription, and renew my subscription automatically at the end of subscription at the current published rate unless I notify you otherwise.

Charge me just 1-Year subscription fee in the amount of \$48

Please choose the card type:

Visa Master Card AMEX Discover

Credit Card #: _____
Name on the Card: _____
Exp. Date: ___ / ___ / ___ CVV: _____

Signature: _____
Date: ___ / ___ / _____

* Please send the check to 2715 Coney Island Ave, Brooklyn, NY. 11235

Subscribe to VATANDOSH online:
www.vatandosh.com
click on Subscribe

KHAVINSON & ASSOCIATES, P.C.
Американские адвокаты

EUGENE KHAVINSON, ESQ.
(admitted in NY, PA)
Автоаварии, серьезные травмы — максимальная компенсация

ИММИГРАЦИОННОЕ ПРАВО

TATIANA ARISTOVA, ESQ.
(admitted in PA, NJ)
Иммиграционный адвокат.

Member of American Immigration Lawyers Association (AILA)
Сопровождение на интервью и в суд в Пенсильвании, Нью-Джерси и Нью-Йорке.

- Политическое убежище
- Защита от депортации в иммиграционном суде
- Апелляции и ведение иммиграционных дел в федеральном суде
- Восстановление проигранных дел
- Петиции о прощении и отмене депортации
- Защита женщин и детей от депортации
- Освобождение из задержания

ЛЮБЫЕ ИММИГРАЦИОННЫЕ ВОПРОСЫ в разумные сроки, по разумным ценам

ЕСЛИ У ВАС ЕСТЬ ТАЛАНТ...
O-1 - Визы для лиц с выдающимися достижениями
P-1/3 - Визы для артистов, художников, спортсменов
Грин-карты на основе Extraordinary Ability

ЕСЛИ У ВАС ЕСТЬ РАБОТА...
H-1B - Рабочие визы
Грин-карты через трудовой гарант (Labor Certification)

ЕСЛИ У ВАС ЛЮБОВЬ...
K-1/3 - Визы и грин-карты для супругов, женихов и невест граждан США

ЕСЛИ ВЫ СЕБЕ МОЖЕТЕ ЭТО ПОЗВОЛИТЬ...
L-1 - Визы и грин-карты для бизнесменов
Грин-карт для инвесторов - быстро, но дорого

ЕСЛИ ВАМ ПРОСТО ПОВЕЗЛО...
Грин-карты на основе DV-Lottery

Безвыходных положений не бывает... Мы найдем решение.

Philadelphia Office: 221 West Street Rd. Trevoise, PA 19053
New York Office: 1122 Coney Island Ave. Suite 220 Brooklyn, 11230
215.355.9095
215.350.7972
718.421.3815 (nights, weekends)

Пишите нам: tatiana@immigrationwise.com

Последние новости иммиграционной реформы можно прочесть на нашем сайте: www.immigrationwise.com